

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!



VATANPARVAR

Gazeta 1992-yilning
24-iyunidan chiqa
boshlagan

2025-yil 14-noyabr
№46 (3160)

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI DAVRGA KIRIB KETDI. UZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

vatanparvar.uz



BAYROG'IM

Mag'rur hilpiraydi yurtim bayrog'i,
To'liqida yashar zafar, shuhrat-shon.
U ozod elimning ori, mayog'i,
Muzaffar yo'llarga boshlovchi sarbon.

Uni jahongirlar aylab to'tiyo,
Doyiga umrini aylagan nisor.
U oddiy tug' emas, samoviy tug'ro,
Dastida shahidlar qutlug' qoni bor...

Zulfiya YUNUSOVA

IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv_vatanparvar_uz
vatanparvar-bt@mail.uz
facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi
instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya

MARKAZIY OSIYO YANGI DAVR OSTONASIDA

Markaziy Osiyo o'z taraqqiyotining yangi, tarixiy ahamiyatga molik bosqichiga qadam qo'yimoqda. Bugun biz chinakam birdamlik bosqichiga o'tyapmiz. Bizning mintaqamizda uzoq yillar davomida ilk bor birgalikda oldinga qarab borishimiz uchun poydevor bo'lib xizmat qilayotgan o'zaro ishonch, yaxshi qo'shnichilik va hurmat muhiti shakllanmoqda.

Bu – o'z-o'zidan paydo bo'lib qolgan jarayon emas, balki umumiy taqdiri va birgalikda taraqqiy etish salohiyatini anglab yetgan mamlakatlarimiz yetakchilarining aniq maqsadga qaratilgan sa'y-harakatlari va siyosiy irodasi natijasidir. Ayni paytda bu jarayon o'zaro ishonch muhitida tobora qizg'in tus olayotgani Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqlari tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan mintaqaviy hamkorlik keng ko'lamdagi zaruratga aylanganidan dalolatdir.

Hamkorligimizni mintaqaviy yaqinlashuvning yangi bosqichiga olib chiqish uchun davlatlarimiz darajasida sharoit yaratilganini ko'rib turibmiz. Oldimizda erishilgan kelishuvlarni fuqarolar va biznes uchun aniq natija va qulayliklarga aylantirishdek strategik vazifa turibdi. Markaziy Osiyo qarorlar shunchaki hujjat sifatida emas, balki mintaqa mamlakatlarida barqaror rivojlanishni ta'minlash va odamlarning kundalik hayotini yaxshilash uchun qabul qilinadigan, imkoniyatlardan birgalikda foydalaniladigan umumiy makonga aylanishi kerak.

Nisbatan qisqa muddatda mintaqaviy hamkorlik va ishonchli muloqotning samarali mexanizmiga aylangan **Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari** mintaqamizda bo'layotgan o'zgarishlarning yorqin timsolidir. Ushbu uchrashuvlar Markaziy Osiyoning bugungi taraqqiyoti va kelajagiga daxldor strategik masalalar bo'yicha umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish uchun asosiy muloqot maydoni sifatida shakllandi.



Bo'lajak **Toshkent sammiti** barqaror, o'zaro bog'liq va farovon Markaziy Osiyoni birgalikda barpo etishda yangi muhim bosqichni boshlab beradi.

Davlat rahbarlarining Toshkentdagi uchrashuvi biz boshlagan yo'lning davomi sifatida mamlakatlarimizning o'zaro anglashuv va sheriklik ruhiga sodiqligini tasdiqlashi, mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishda tub burilish yasashi kerak.

Jahon tartibotining keng ko'lamda transformatsiyaga uchrashi, global iqtisodiyotni parchalashga qaratilgan xatarlar, iqlim o'zgarishi, oziq-ovqat va energetika xavfsizligi bilan bog'liq muammolarning keskinlashib borayotgani sa'y-harakatlarimizni birlashtirish yo'lidagi intilishimizni kuchaytirdi.

Bularning barchasi Markaziy Osiyo davlatlaridan yanada jips va hamjihat bo'lib harakat qilishni taqozo etadi. Aynan shuning uchun ham bugungi kunda hamkorligimizni mustahkamlash shunchaki siyosiy maqsad emas, balki strategik zaruratdir. Markaziy Osiyo barqarorlik va bunyodkorlik hududiga, mintaqaviy o'zaro bog'liqlik barqaror rivojlanish va xavfsizlik uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilayotganining namunasiga aylandi.

Maslahat uchrashuvlari formati yo'lga qo'yilgan 2017-yil mintaqaviy hamkorlik tarixida tub burilish yasadi. Mintaqa yetakchilari ko'p yillar mobaynida birinchi marta tashqi vositachilarsiz tizimli va muntazam muloqotni boshladilar. Bu ishonchga, ochiqlik va umumiy manfaatlarni anglashga asoslangan **yangicha siyosiy tafakkur** ramziga aylandi. Aynan Maslahat uchrashuvlari doirasidagi muloqot tufayli eski davrdan qolgan bir qator kelishmovchiliklarni bartaraf etish va ishonchsizlikdan haqiqiy hamkorlikka o'tishga erishildi.

Mintaqaviy hamkorlik borasida boshlangan yangi bosqichning eng muhim yutuqlaridan biri – **chegara masalalari uzil-kesil hal etilganidir**. Yaqin-yaqingacha imkonsiz tuyulgan bu muammoning yechimi bugun real holatga, bir paytlar bizni ajratib turgan chegaralar esa do'stlik va hamkorlik ko'prigiga aylandi. 2025-yil mart oyida O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida **uch davlatning chegaralari tutashgan nuqta to'g'risidagi Shartnoma** va **Xo'jand deklaratsiyasining** imzolangani tarixiy ahamiyatga molik hodisadir. Buni haqli ravishda olamshumul voqea deb atash mumkin.

Mintaqa mamlakatlarining mustaqil rivojlanish tarixida ilk bor o'zaro chegaralarning

barchasi huquqiy jihatdan rasmiylashtirildi, o'nlab yillar davomida keskinlik manbai bo'lib kelgan masalaga nuqta qo'yildi.

Shu yil oktabr oyida bo'lib o'tgan Farg'ona tinchlik forumi mamlakatlarimizning Farg'ona vodiysida tinchlik va totuvlikni mustahkamlashga bo'lgan o'zaro intilishining yaqqol amaliy tasdig'i, Markaziy Osiyoda kechayotgan bunyodkorlik jarayonlarining ifodasi bo'ldi.

Ilgari keskin kelishmovchilik va ziddiyatlarga sabab bo'lib kelgan suv-energetika sohasida ham prinsipial ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida Qambarota GES-1 loyihasini birgalikda amalga oshirish to'g'risidagi bitim mintaqaning suv-energetika resurslaridan birgalikda foydalanish amaliyotida yangi sahifa ochgani qardoshlarcha hamkorlikning yorqin dalilidir.

Toshkent va Bishkek o'rtasida **Chashma bulog'idan** birgalikda foydalanish to'g'risidagi kelishuv oqilona murosaga misol bo'la oladi.

O'zbekiston va Tojikiston ishtirokida Zarafshon daryosida **Yovon** va **Fondaryo GESlarini** qurish bo'yicha hamkorlik oldinga siljimoqda, O'zbekiston, Tojikiston va Qozog'iston o'rtasida **Bahri Tojik suv omborini** vegetatsiya davrida kelishilgan tartibda ishlatish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Turkmaniston bilan hukumatlararo bitim doirasida **Amudaryo suv resurslaridan** oqilona foydalanish bo'yicha kelishuvga erishildi. Bu suv resurslarini birgalikda boshqarishni yaxshilaydi hamda ekologik muammolar xavfini kamaytiradi.

Bularning barchasi ishonch, o'zaro manfaatdorlik va umumiy resurslarga adolatli yondashuvga asoslangan yangi hamkorlik ruhini shakllantirmoqda. Bunday loyihalar aholining iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlash va mintaqaning energetik xavfsizligini mustahkamlash uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Shu bilan birga, chegara tartib-taomillari va gumanitar aloqalar sohasida jiddiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. 2023-yil sentabr oyidan boshlab O'zbekiston va Qirg'iziston fuqarolari **ID-kartalar** asosida chegaradan o'tayotgani odamlarning erkin harakatlanish hududini shakllantirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Qozog'iston va Tojikiston bilan ham shunday kelishuvlar ishlab chiqilmoqda. Hududlar o'rtasidagi aloqalar kengaymoqda, chegaraoldi savdo hajmi oshmoqda, gumanitar va madaniy aloqalar mustahkamlanmoqda.

Hamkorlikni institutsional jihatdan rasmiylashtirish bo'yicha qadamlar ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada 2023-yilda Dushanbe shahrida o'tkazilgan beshinchi Maslahat uchrashuvini qayd etish lozim.

Mazkur uchrashuvda davlat rahbarlarining kelishuvlarini tayyorlash va amalga oshirishning doimiy mexanizmi sifatida **Milliy muvofiqlashtiruvchilar kengashini** ta'sis etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Ushbu mexanizmning ishga tushirilishi Maslahat uchrashuvlari formatiga tizimli tus berish va birgalikda ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirishda izchillikni ta'minlash imkonini berdi. Shuningdek, **parlamentlararo muloqot va Xavfsizlik kengashlari kotiblari darajasida muntazam uchrashuvlar** yo'lga qo'yilgan.

2022-yilda bo'lib o'tgan Cho'lponota uchrashuvi yakunlari bo'yicha suveren tenglik, o'zaro qo'llab-quvvatlash va mintaqa kelajagi uchun birgalikdagi mas'uliyat tamoyillarini mustahkamlagan **XXI asrda Markaziy Osiyoni rivojlantirish maqsadlarida do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomaning imzolanishi shartnomaviy-huquqiy bazani** yanada mustahkamlashga xizmat qildi. 2025-yilda Tojikistonning bu hujjatga qo'shilgani mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Biz ushbu qarorni olqishlaymiz hamda yaqin istiqbolda Markaziy Osiyoda o'zaro ishonch, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik ruhini uzil-kesil mustahkamlashga xizmat qiladigan mazkur shartnoma mintaqaning barcha davlatlari tomonidan imzolanishini kutib qolamiz.

2022-yilda davlat rahbarlari tomonidan **Markaziy Osiyo davlatlarining ko'p tomonlama formatlar doirasidagi hamkorligi konsepsiyasi** ham tasdiqlandi.

Unda mintaqa mamlakatlari xalqaro platformalarda, jumladan, "Markaziy Osiyo plyus" formatlarida o'zaro muvofiq holda harakat qilishining yo'nalishlari belgilab olindi.

2024-yilda Ostona sammitida qabul qilingan **"Markaziy Osiyo – 2040" mintaqaviy kooperatsiyani rivojlantirish konsepsiyasi** muhim dasturiy hujjat bo'ldi. Unda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash va mamlakatlarimiz taraqqiyotiga qaratilgan hamkorlikning uzoq muddatli ustuvor yo'nalishlari mustahkamlab qo'yildi.

Shu tariqa ko'p qirrali o'zaro hamkorlik arxitekturasini barpo etar ekanmiz, rivojlanish uchun ulkan manbalarni kashf etdik.

Davlatlarning sa'y-harakatlari bilan mintaqada yangi iqtisodiy voqelik shakllanmoqda. So'nggi sakkiz yil davomida Markaziy Osiyo mamlakatlarining yalpi ichki mahsuloti qariyb ikki yarim barobar o'sib, 520 milliard dollarga, tashqi savdo hajmi esa ikki karradan ziyod ko'payib, 253 milliard dollarga yetdi. Shu bilan birga, mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro savdo hajmi 2 marta oshib, qariyb 11 milliard dollarga, o'zaro investitsiyalar esa 5,6 barobarga yetdi. Birgina mamlakatimizni oladigan bo'lsak, O'zbekistonning mintaqa davlatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi 2016-yildagi 2,4 milliard dollardan 2024-yilda 7,2 milliard dollarga yetdi, qo'shma korxonalar soni esa 1800 dan oshdi.

Sanoatda Markaziy Osiyo barqaror ravishda yiliga 6 foiz atrofidagi o'sishni namoyish etmoqda, bu jahondagi o'rtacha o'sish sur'atidan ikki karra yuqori. Bunday muvaffaqiyat ishlab chiqarish kooperatsiyasining yangi shakllarini yo'lga qo'yish – qo'shma investitsiya fondlarini (jumladan, O'zbekiston – Qirg'iziston, O'zbekiston – Tojikiston va Qozog'iston – Qirg'iziston) tashkil etish, avtomobilsozlik, elektrotexnika, to'qimachilik sanoati, qishloq xo'jaligi sohalarida loyihalarni amalga oshirish bilan bog'liq. Mintaqa mamlakatlari tomonidan tasdiqlangan **2025–2027-yillarda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar rejasi** hamkorlikning muhim vositasiga aylanmoqda. Kichik va o'rta biznesning o'sishiga ko'maklashadigan chegaraoldi savdo zonalari va xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazlari faol rivojlanmoqda.

Gumanitar sohada ham keyingi yillarda aloqalar mustahkamlanmoqda. Markaziy Osiyo yetakchi ayollari muloqoti va Yoshlar platformasi ta'sis etildi, 2022-yildan boshlab

rektorlar va olimlar forumlari o'tkazilmoqda, o'zaro madaniyat yillari, ko'rgazmalar, konsertlar va sport tadbirlari muntazam o'tkazilmoqda.

Eng muhimi, qardosh xalqlarimiz bo'layotgan barcha ijobiy o'zgarishlarni o'z kundalik hayotida his etmoqda. Yangi o'tkazish punktlari ochilgani, aviaqatnovlar, temiryo'l va avtobuslar yo'nalishlari yo'lga qo'yilgani o'zaro bordi-keldilarni bir necha bor oshirish, madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirish imkonini berdi. Mintaqa mamlakatlarining umumiy sayyohlik oqimida ichki mintaqaviy turizmning ulushi 80 foizdan oshdi.

Yaqin-yaqingacha orzu bo'lib tuyulgan erkin harakatlanish, o'zaro hurmat, yaqinlik va ishonch tuyg'usi bugun amaldagi haqiqatga aylanmoqda.

Asta-sekin Markaziy Osiyoning yangi **mintaqaviy o'ziga xosligi** vujudga kelmoqda. Bu farqli jihatlarimizni e'tirof etish va ayni paytda xalqlarimizning umumiy tarixi, mushtarak madaniyatini, taqdiralarimiz o'zaro bog'liq ekanini chuqur anglashga asoslanadi. Qo'shnichilik – xavf emas, imkoniyat, bir tarafning muvaffaqiyati – barchaning yutug'i degan yagona mintaqaviy makonga mansublik hissi shakllanmoqda.

Mana shunday ishonch, o'zaro anglashuv va umumiy kelajak ruhi bugungi kunda mintaqaviy jipslashuvni yanada mustahkamlash, ya'ni barqaror va o'zaro bog'liq, farovon Markaziy Osiyoni birgalikda barpo etish bo'yicha **Markaziy Osiyo jarayonini** boshlash uchun eng muhim tayanch asosdir.

Ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyoning har bir davlati o'z sa'y-harakatlarini iqtisodiyotni rivojlantirish, ishonchni mustahkamlash va mintaqaviy hamkorlikni kengaytirishga yo'naltirish orqali mintaqamiz barqarorligi va farovonligini ta'minlashga sezilarli hissa qo'shmoqda.

Qozog'iston transport yo'laklarini faol rivojlantirmoqda, chegara punktlarini modernizatsiya qilmoqda, savdo to'siqlarini bartaraf etmoqda va madaniy-gumanitar almashinuv bo'yicha loyihalarni amalga oshirmoqda. Qirg'iziston va Tojikiston muzliklarning erishi bilan bog'liq masalalarda izchil hamkorlik qilmoqda, energetika tizimlarini modernizatsiya qilish va transport jihatidan o'zaro bog'liqlikni rivojlantirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirmoqda. Turkmaniston tinchlik va ishonchni mustahkamlash, mintaqaning transport-tranzit salohiyatini

oshirish, BMTning Orol havzasi va iqlim texnologiyalari bo'yicha dasturini qabul qilishga doir muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Amaliy harakatlarimiz, kelajak uchun mas'uliyatimiz, yaxshi qo'shnichilik, do'stlik va o'zaro manfaat tamoyillariga sodiqligimiz shuni isbotladi: **Yangi Markaziy Osiyo** tinchlik, barqaror taraqqiyot va yaratuvchan sheriklik yo'lini tanlamoqda. Ramziy ma'noda aytganda, biz devor emas, ko'prik barpo etmoqdamiz.

Mintaqaviy jipslashuv borasidagi yutuqlar tufayli bugungi kunda Markaziy Osiyo xalqaro munosabatlarning o'z manfaatlari va taraqqiyot yo'llarini aniq tasavvur etadigan mustaqil va mas'uliyatli ishtirokchisi sifatida qaror topdi.

"Markaziy Osiyo plyus" hamkorlik formatlari **mintaqaning xalqaro huquqiy subyekt sifatidagi mavqeyi** kuchayib borayotganining ifodasi hamda barqarorlik va taraqqiyotning muhim markazi sifatidagi rolining e'tirofi bo'ldi.

Ilgari tashqi hamkorlar aloqalarni asosan ikki tomonlama asosda qurgan bo'lsa, bugungi kunda dunyoning yetakchi davlat va birlashmalari Markaziy Osiyo bilan munosabatlarni yaxlit mintaqaviy sherik sifatida rivojlantirmoqda.

Bu mintaqaning boshqa hamkorlar bilan munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqadi: Markaziy Osiyo tashqi hamkorlar bilan xalqaro munosabatlarning yagona subyekti sifatida muloqot qilsa, uning ovozi balandroq va ishonchliroq yangraydi, pozitsiyamiz kuchliroq bo'ladi, investitsiyalarni jalb etish, boshqa mamlakatlar bilan barcha yo'nalishlarda hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha vazifalarni yanada samarali hal qila olamiz.

Dunyoga ochiqligimiz, niyatlarimizning shaffofligi va muloqotga moyilligimiz xalqaro maydonda Markaziy Osiyoni yangicha qabul qilish uchun asos bo'ldi.

Ayni paytda Markaziy Osiyoni dunyoning yetakchi davlatlari va birlashmalari bilan bog'laydigan o'ndan ortiq "Markaziy Osiyo plyus" formatlari faoliyat ko'rsatmoqda. Joriy yilning o'zida "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi", "Markaziy Osiyo – Xitoy", "Markaziy Osiyo – Rossiya" va "Markaziy Osiyo – AQSh" sammitlari bo'lib o'tgani mintaqaning global siyosatdagi shiddati va strategik ahamiyati ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Yangidan yangi "Markaziy Osiyo plyus" muloqotlari davlat rahbarlari darajasiga ko'tarilayotgani ularning amaliy ahamiyati va siyosiy qimmatini

ortib borayotganidan dalolat beradi. Bir qator formatlarda esa energetika, transport, “yashil iqtisodiyot” va raqamlashtirish sohalarida aniq loyihalarni ishlab chiqish uchun ishchi guruh va kotibiyatlar tashkil etilmoqda.

Afg‘oniston bilan bog‘liq masalalarni hal etmasdan turib, mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlab bo‘lmaydi. Bu mamlakat umumiy mintaqamizning bir chekkasida emas, balki uning tabiiy bir qismidir. Butun Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikning mustahkam bo‘lishi ko‘p jihatdan Afg‘onistonning tiklanishi va rivojlanishiga bog‘liq.

Afg‘onistonning jafokash xalqi **chuqur gumanitar inqiroz** sharoitida yashashda davom etmoqda. Shu munosabat bilan mintaqamiz mamlakatlari Afg‘onistonni mintaqaviy va xalqaro jarayonlarga izchil jalb etish zarurligidan kelib chiqmoqda. Bu esa ushbu mamlakat taraqqiyoti va keng mintaqamizda barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Markaziy va Janubiy Osiyoni bog‘laydigan **Transafg‘on temiryo‘lini** barpo etish muhim ahamiyatga ega. Mazkur loyihaning amalga oshirilishi savdo, investitsiyalar va transport jihatidan o‘zaro bog‘liqlik uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, shuningdek, Afg‘onistonning iqtisodiy tiklanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, afg‘on xalqiga gumanitar va ta‘lim borasida yordam ko‘rsatish, energetika sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish, iqtisodiyotning muhim tarmoqlari uchun mutaxassislar tayyorlash ishlari davom etmoqda.

Afg‘oniston umumiy tinchlik va xavfsizlik, hamkorlik va taraqqiyot makonining bir qismiga aylanishi lozim. Bu mintaqaning barcha mamlakatlari manfaatlariga javob beradi hamda Markaziy Osiyoning janubiy sarhadlarida barqarorlik belbog‘ini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, bugungi kunda Markaziy Osiyo o‘z jadal taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Biz ikki tomonlama masalalarni hal etishdan iqlim o‘zgarishi, energetika sohasidagi o‘tish, suv va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish kabi asosiy mintaqaviy tahdidlarga birgalikda yechim topish sari bormoqdamiz. Mamlakatlarimiz oldida umumiy mas‘uliyat, o‘zaro ishonch va kelajagimiz haqidagi yakdil tasavvurga asoslangan hamkorlikning yangi ufoqlari ochilmoqda.

Shu munosabat bilan Markaziy Osiyo yaqin o‘n yilliklarda qanday rivojlanadi degan prinsipial savolga birgalikda javob berishimiz zarur.

Markaziy Osiyo aholisi 80 millionlik marradan o‘tib bo‘ldi, BMT prognozlariga ko‘ra, 2050-yilga borib, bu ko‘rsatkich 100 milliondan oshadi. Shuningdek, Markaziy Osiyo dunyoning eng yosh mintaqalaridan biri bo‘lib, aholisining o‘rtacha yoshi atigi 29 yoshni tashkil etmoqda.

Oldimizda ushbu demografik resursni taraqqiyot va innovatsiyaning qudratli omiliga aylantirish, yoshlarimizning iste‘dodi va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun sharoit yaratish vazifasi turibdi.

Ayni paytda mamlakatlarimizning o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish suverenitet, teng huquqlilik va ichki ishlarga aralashmaslik borasidagi mustahkam poydevor asosida amalga oshirilishi lozim degan vazmin yondashuvini qayd etish muhimdir. Hech kim mintaqamiz mamlakatlariga begona modellarni tiqishtirmasligi yoki milliy tuzilmalardan ustun turadigan tuzilmalarni yaratmasligi lozim.

Markaziy Osiyodagi hamkorlik ixtiyoriy, pragmatik va mamlakatlarimiz xalqlariga foyda keltiradigan real natijalarga yo‘naltirilgan bo‘lib qolishi kerak.

Hozirgi bosqichda oldimizda o‘ta muhim masalalar turibdi, mintaqamizning barqarorligi va rivojlanish sur‘atlari ularning hal etilishiga bog‘liq.

Birinchidan, mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishni davom ettirish – mavjud mexanizmlarni mustahkamlab, ularga barqaror tus va amaliy ma‘no-mazmun bag‘ishlash zarur. Oxir-oqibatda samarali mintaqaviy institutlarsiz hamkorlikni tizimli rivojlantirish va qabul qilinayotgan qo‘shma qarorlarni sifatli amalga oshirishni ta‘minlab bo‘lmaydi.

Ikkinchidan, xavfsizlik sohasidagi maqsadimiz – tahdid va xatarlarga qarshi kurashish bo‘yicha umumiy salohiyatni shakllantirishdan iborat. Xavfsizlik kengashlari kotiblari, maxsus xizmatlar, mudofaa va huquqni muhofaza qilish idoralari rahbarlarining muntazam uchrashuvlarini davom ettirish lozim.

“Xavfsizlikning bo‘linmasligi” prinsipi asos bo‘lib qolishi kerak. Ayni paytda mintaqaviy hamkorlik amaldagi xalqaro mexanizmlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi, barqarorlikni mustahkamlash hamda mamlakatlar va umuman, mintaqamiz xavfsizligiga nisbatan tahdidlarning keng doirasiga

qarshi turish bo‘yicha o‘z salohiyatini shakllantirishi lozim.

Uchinchidan, iqtisodiy sohada ichki mintaqaviy savdoni rivojlantirish, chegaralardan o‘tish tartib-taomillarini soddalashtirish va o‘zaro investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratish muhimdir. Sanoat kooperatsiyasini faollashtirish, mintaqaviy va hududlararo yetkazib berish zanjirlarini shakllantirish, chegaraoldi savdo zonalarini rivojlantirish, transport va iqtisodiy yo‘laklar tarmog‘ini kengaytirish, transport, energetika, qishloq xo‘jaligi va raqamli iqtisodiyot sohalarida qo‘shma loyihalarni ilgari surish zarur.

Hamkorlikning ekologik jihatiga – iqlim o‘zgarishlariga moslashish, transchegaraviy suv resurslari va biologik xilma-xillikni asrash, “yashil” energetika va kam uglerodli texnologiyalarga o‘tish bo‘yicha birgalikdagi sa‘y-harakatlarga alohida e‘tibor qaratishimiz lozim.

Markaziy Osiyo barqaror ekologik rivojlanish mintaqasi va atrof-muhitga mas‘uliyatli munosabatning namunasi bo‘lishga qodir va shunday bo‘lishi kerak.

To‘rtinchidan, gumanitar hamkorlik ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolmoqda. Inson kapitalini rivojlantirish, ta‘lim, ilm-fan va madaniy aloqalarni mustahkamlash markaziy vazifadir. Umumiy axborot makonini yaratish, ta‘lim, sog‘liqni saqlash sifatini oshirish, umuman, ijtimoiy sohani, jumladan, turizmni va yoshlarga oid qo‘shma dasturlarni rivojlantirish – bularning barchasi xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro anglashuvni mustahkamlashga bevosita xizmat qiladi. Umumiy qadriyatlar, madaniy yaqinlik va farovonlikka birgalikda intilishga asoslangan mintaqaviy o‘ziga xoslikni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Beshinchidan, Markaziy Osiyo mamlakatlarining tashqi siyosatda kelishilgan yondashuvlarini ishlab chiqish muhim yo‘nalish hisoblanadi.

Geosiyosiy beqarorlik tobora ortib borayotgan va jahon kuch markazlari o‘rtasida raqobat kuchaygan sharoitda mintaqamiz davlatlarining xalqaro maydondagi pozitsiyalarini muvofiqlashtirish barqarorlik va umumiy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan asosiy hamkorlar bilan pragmatik aloqalarni yo‘lga qo‘yishda o‘z samaradorligini isbotlagan “Markaziy Osiyo plyus” formatlarini yanada rivojlantirish zarur.

Hozirgi bosqichda “Markaziy Osiyo plyus” formatlari va boshqa xalqaro muloqot maydonlarida mintaqaviy muvofiqlashuvni rivojlantirish, tashqi sheriklar bilan hamkorlik masalalari bo‘yicha kelishilgan ustuvor yo‘nalishlar va pozitsiyalarni ishlab chiqish strategik vazifaga aylanmoqda. Faqat shu yo‘l bilangina jahonning yetakchi mamlakatlari va birlashmalari bilan hamkorligimizni davlatlarimiz va butun mintaqaning iqtisodiy hamda texnologik taraqqiyotiga, barqarorligiga xizmat qiladigan aniq loyihalar asosida boyitishimiz mumkin.

O‘zbekiston uchun mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish taktik tanlov emas, balki Markaziy Osiyo kelajagi uchun umumiy mas‘uliyatni anglashdan kelib chiqadigan ongli strategik qarordir.

Ishonchimiz komilki, global noaniqlik davrida yaxshi qo‘shnichilik, hamjihatlik va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash – Markaziy Osiyoning asosiy resursidir. Mintaqamiz mamlakatlari yakka holda hal qilishi qiyin bo‘lgan umumiy xavfsizlik muammolari va rivojlanish vazifalari birgalikdagi sa‘y-harakatlar bilan muvaffaqiyatli hal qilinishi mumkin. Ishonch va sheriklikni mustahkamlash o‘z kelajagini umumiy qadrdon diyorimiz – Markaziy Osiyoning tinchligi, barqarorligi va taraqqiyoti bilan bog‘lagan millionlab odamlarning manfaatlariga javob beradi.

Bugun biz kuchli, barqaror va farovon mintaqamiz – Yangi Markaziy Osiyoning mustahkam poydevorini yaratmoqdamiz.

Mintaqamizda kechayotgan jarayonlar – bu ongli va ortga qaytmas tanlov. Ushbu yo‘l bizdan nafaqat birgalikdagi sa‘y-harakatlarni, balki umumiy kelajagimiz uchun mas‘uliyatni o‘z zimmamizga olishga tayyor bo‘lishimizni ham talab qiladi.

Kuch va imkoniyatlarimizni birlashtirib, umumiy vazifalarni hal etmoqdamiz, shuningdek xalqaro hamjamiyatga tinch va bunyodkor hamkorlikning **vaqt va hayot sinovidan o‘tgan – ishonch, yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro qo‘llab-quvvatlashga asoslangan o‘z modelimizni** taklif etmoqdamiz. Va bugun Markaziy Osiyoni keng mintaqamizda yashayotgan barcha millat va xalqlar uchun yagona tinchlik, farovonlik va taraqqiyot makoniga aylantiradigan ushbu tarixiy sur‘atni saqlab qolishimiz har qachongidan ham muhimdir.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

18-noyabr – O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i qabul qilingan kun

AJDODLAR RUHIGA MANGU EHTIROM

Qadimda qo‘llanilgan tug‘lar davlat bayroqlarida, tamg‘alarda o‘z aksini topganini sohibqiron Amir Temur bobomizning: *“Amr qildimki, qaysi bir amir biron mamlakatni fath etsa, yo g‘anim lashkarini yengsa, uni uch narsa bilan mumtoz qilsinlar: faxrli xitob, tug‘ va nog‘ora berib, uni “bahodir” deb atasinlar; uni davlat va saltanat sherigi bilib, kengash majlisiga kirgizsinlar; unga chegara viloyati topshirilsin va o‘sha yerlik amirlar unga bo‘ysunsinlar”* degan va uning davomida kelgan *“...amirni mukofotlab, unga tuman, tug‘, alam (bayroq) va nog‘ora berdim”*, degan so‘zlarida tug‘, bayroqqa alohida e‘tibor qaratganini ko‘ramiz.

Bayroq tarixiga e‘tibor bersak, bayroq yog‘och yoki metall dastaga, sim yoki qalinroq qattiq tirkamaga mustahkamlangan, bir yoki bir necha rangli, davlat, qo‘shin, chegara, hududni ajratuvchi, davlatni ifodalovchi belgilar, bezaklar tasviri tushirilgan muayyan o‘lchamdagi mato bo‘lgan. Shuning uchun ayrim tarixiy manbalarda alam (*alomati, belgi, nishona*) yalov, tug‘ (*bayroq*) kabi nomlar bilan ham tilga olingan.

VI–VIII asrlarga oid Xorazmda topilgan kumush idishdagi qasmi qamal qilayotgan qo‘shin tasvirida turli bayroqlar va tug‘lar tushirilgan idish Ermitajda saqlanmoqda. Tasvirda bayroq harbiylarga kuch va g‘urur berishi uchun jang chog‘ida baland ko‘tarilgan va g‘alaba qozonilishi bilan chodirga qadab qo‘yilganini ko‘ramiz. Yalov “hilpiramoq” ma‘nosini anglatishi bilan birga qo‘shinning, hududning belgisi sifatida kalta tayoqqa mustahkamlanib, o‘tovlar va binolar tepasiga o‘rnatilgan. Tarixda bayroqlar eng ko‘p qo‘llangan soha harbiy hamda dengiz kemalaridir. Bayroq yordamida do‘st-u dushman ajratilgan. Bayroq tarixdan muqaddas hisoblangan, uni yo‘qotish yoki o‘g‘irlatish qo‘shinga ruhiy ta’sir etgan hamda bu dushmanga qo‘l kelgani uchun ham buyuk Amir Temur bayroqni faqat bahodirlarga ishongan. Sohibqiron 1370-yilda Balx hokimi amir Husaynga qarshi qo‘shin tortib borayotganda, Termiz yaqinidagi Biyo qishlog‘ida pir Sayyid Baraka unga oliy hokimiyat, saltanat ramzi bo‘lmish katta nog‘ora – tabl va yalov – bayroq tortiq qiladi. Baroqxon 1423–1427-yillarda Ulug‘ Muhammad ustidan g‘alaba qilib, Oq O‘rdada hokimiyat tepasiga kelgach, Ulug‘bek unga qimmatbaho sovg‘alar, shuningdek nog‘ora va bayroq yuborgani ma‘lum. Harbiy harakatlar chog‘ida nog‘ora va bayroq

oliy bosh qo‘mondonning baland yerga o‘rnatilgan xirgohi oldidan joy olgan, jangchilarni ruhlantiruvchi kuylar tinmay ijro etib turilgan. Saroylarda nog‘ora va bayroq darvoza ustidagi xonaga joylangan.

Mirzo Ulug‘bek ham Chingizxonning oq tug‘i haqida ma‘lumot qoldirgan. “Boburnoma” asarida tug‘lar bilan bog‘liq qiziqarli ma‘lumotlar bor. Demak, tarixiy manbalarda keltirilgan tug‘ ham muqaddas hisoblanib, xalq hamda qo‘shinning himoyachisi sifatidagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Tug‘lar harbiy bo‘linmalarda ham qo‘llanib, har qaysi harbiy qism maxsus tamg‘alar bilan farqlangan. Tug‘ qadimdan Sharq mamlakatlarida hukmdorlik, vazirlik, beklik belgisi bo‘lib, u ho‘kiz yoki ot dumidan yasalgan.

Tug‘ moziyda Osiyoning bir qancha davlatlarida (*Xitoy, Hindiston*) qo‘tos hamda tibet ho‘kizi dumidan yasalgan bo‘lsa, turklar uni, asosan, ot dumidan tayyorlashgan. “Tug‘” atamasi ilk bor Shineusu yodnomasida qo‘llangan. 1202-yilda Chingizxon O‘nan (*Onon*) daryosi bo‘yida 8 tug‘ni tikkan holda saltanat tashkil topganini e‘lon qiladi. Islom dini qabul qilingandan keyin ham turkiy davlatlarda tug‘ qo‘llanishda davom etadi. Chingizxon saltanatida, saljuqiylar, mamluklar, qoraxoniylar, usmoniylarda bo‘lgani kabi, tug‘ temuriylarda ham mavjud edi. Tuman begi “bahodir” faxriy unvoni qatori tug‘, dovul hamda tumanug‘ va chortug‘lar bilan sharaflangan.

Bo‘ri boshli tug‘lar bo‘rini o‘z totemi – ilk ajdodi deb hisoblagan ko‘plab turkiy davlatlar va xalqlar tomonidan qo‘llanilgan. Jumladan, oltindan yasalgan bo‘ri boshli tamg‘a turklarning bayrog‘ida o‘z aksini topgan. Mahmud Koshg‘ariyning ma‘lumot berishicha, qoraxoniylar hukmdorlar “to‘qqiz tug‘liq xon” yoki xoqon unvoni bilan ulug‘langan. Keyinchalik tug‘larga qo‘shimcha ravishda turli hajmdagi mato parchalari, tasmalar ilingan. Bu tug‘lar ham bahodirlar qo‘lida xalqni, qo‘shinni ortidan ergashtirsa, ikkinchi tomondan dushman tarafga g‘ulg‘ula, vahima solgan. Tug‘ga ilingan mato esa havo bilan to‘lganda osmondan uchib borayotgan ajdarning tasvirini bergan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabrdagi navbatdan tashqari VII sessiyasida tasdiqlangan qonunga ko‘ra, Davlat bayrog‘i – mamlakat davlat suverenitetining ramzi hisoblanib, u Yer yuzining shu sarhadlarida mustaqil O‘zbekiston davlati qaror topganini anglatadi va o‘zida milliy-madaniy an‘analarimizni mujassam etadi. Davlat bayrog‘i va undagi har bir belgi, rang, jilo bugungi O‘zbekiston hududida qadimda mavjud bo‘lgan tarixiy jarayonlarni, davlatlarni mantiqan bog‘liqligini hamda milliy-madaniy an‘analarimizni ham ifoda etgan ranglar bilan ajralib turadi. Bayroqdagi moviy

rang uning ostida barcha millatlar turli xil xavf-xatarlardan xoli, emin-erkin, ahil-inoq yashab kelayotgan musaffo osmonimiz hamda obihayot ramzidir. Oq rang – davlatimiz fuqarolarining o‘zaro hamjihatlikda, bir-birini hurmat qilib, diniy bag‘rikenglik tamoyillari asosida tinch-totuv yashayotgani timsoli. Yashil rang esa tabiatning yangilanishi hamda ona-yurtimizning bepoyon yer-u serhosil dalalarining ramzidir. Mana bugun “Yashil makon” loyihasi ham bayroqdagi ranglarning amaliy ifodasi bo‘lsa, qizil hoshiya yuqoridagi manbalarda qayd etilgan davlatimizning himoyasi uchun to‘kilgan qon, istiqloq orzusini ifoda etadi. Yarim oy va 12 yulduz esa “ilmi nujum”ni aks ettiradi.

Davlat ramzlarimizga bo‘lgan e‘tibor va hurmat nuqtayi nazaridan 2010-yilning 24-dekabrida “O‘zbekiston Respublikasining davlat ramzlari haqidagi ayrim qonun hujjatlariga va O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni imzolandi. Zero davr o‘tishi bilan qonunlar ham davrga mos takomillashib boradi. Shu bois, ushbu qonunga binoan “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi qonunlar va ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga qator o‘zgartish hamda qo‘shimchalar kiritildi. Ularga asosan, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi qonunning 4-moddasi to‘rtinchi qismidagi “Yangi oy va yulduzlarning” degan so‘zlar “Oq rangli yangi oy va o‘n ikkita oq rangli besh qirrali yulduzlarning...” degan so‘zlar bilan almashtirilgan. Bu esa bayrog‘imiz tasviri haqidagi ranglar mazmunini aniqlashtirdi. Endi eng asosiysi, bugun Davlat bayrog‘imiz “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi qonunning 5-moddasida qayd etilganidek, Davlat bayrog‘i tasviri tushirilgan belgilardan O‘zbekiston Respublikasiga tegishlilikni belgilash maqsadida predmetlar, o‘quv-tarbiya jarayoni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi davlat mukofotlarining elementi sifatida foydalanilishi mumkin. Shu bois ham, bugun milliy bayrog‘imiz davlat idora hamda muassasalari, o‘quv yurtlari, O‘zbekiston a‘zo bo‘lgan xalqaro tashkilotlar, chet ellardagi elchixona va doimiy vakolatxonalarimiz peshtoqida hilpirab turibdi. Qonunning 13-moddasiga muvofiq, fuqarolarimiz, shuningdek O‘zbekistonda turgan boshqa shaxslar davlatimiz bayrog‘ini hurmat qilishlari shart va unga behurmatlik uchun jazo muqarrar.



Bayrog‘imiz davlat idora va tashkilotlari, ta’lim muassasalari, harbiy qismlar, qo‘yingki, barcha sarhadlarda hilpirab turibdi. Qurolli kuchlarimiz safiga chaqirilgan, harbiy ta’lim muassasalarini tamomlagan yoshlarimiz Davlatimiz bayrog‘i poyida Vatanni ko‘z qorachig‘iday asrash, uni o‘z sha’ni va nomusiday munosib himoya qilishga qasamyod qiladi. Bugun turli bayram tantanalari, mamlakatimiz fuqarolari qatnashayotgan xalqaro miqyosdagi siyosiy, madaniy-ma’rifiy tadbirlar, nufuzli sport musobaqalarida ham bayrog‘imiz Vatanimizning sha’ni, xalqimizning g‘ururini yorqin aks ettirmoqda. Qashqadaryoda O‘zbekistondagi eng baland cho‘qqi – “Hazrati Sulton”ga yurtimiz bayrog‘i o‘rnatildi. “Hazrati Sulton” cho‘qqisining balandligi 4 643 metrni tashkil etadi.

Dunyo mamlakatlaridagi elchixonalarimiz binolari, qator xalqaro tashkilotlar qarorgohlarida ham bayrog‘imiz O‘zbekiston ramzi bo‘lib turibdi. Chet ellarda yurganimizda o‘sha yerda hilpirab turgan bayrog‘imizga ko‘zimiz tushishi bilan yuragimizda cheksiz faxr uyg‘onadi, ruhimiz ko‘tariladi. Bayrog‘imiz timsolida dunyoning har qaysi nuqtasida ham O‘zbekiston degan himoyachimiz, suyanchig‘imiz borligini his qilamiz.

Davlat ramzlari muqaddas, ularni hurmat qilish burchimiz ekanini eslatar ekanman, shuning qatorida Davlat bayrog‘ining tasviri tushirilgan belgilardan quyidagi: birinchi, nodavlat tashkilotlari hujjatlarining rekvizitlari yoki reklama materiallarida, shuningdek ishlab chiqarilayotgan yoki realizatsiya qilinayotgan tovarlarni (*ishlarni, xizmatlarni*) o‘tkazish uchun tijorat maqsadida foydalanish mumkin emasligini ta’kidlash joiz, deb bilaman. Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlarning ramzlari O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘iga o‘xshash bo‘lishi mumkin emas.

Davlat bayrog‘i to‘g‘risidagi qonunchilik ijrosini ta’minlash davlat organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlari zimmasiga yuklatilgan.

Darhaqiqat, davlat ramzlari hamisha muqaddas va ulug‘ sanaladi. Ana shunday millatimiz, davlatimiz ramzi bayroq qabul qilingan kun bayrami xalqimizga yarashadi. Toshkent shahrida, shahar va tuman markazlarida osmono‘par balandlikda bayrog‘imizning halpirab turgani vatanparvarlik ruhini oshiradi.

Firuz MUHITDINOVA,
Toshkent davlat yuridik
universiteti professori



Surat sun‘iy intellekt yordamida tayyorlandi.

“Yashil makon”

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan bundan to‘rt yil avval boshlangan “Yashil makon” umummilliy loyihasi bugungi kunga kelib chinakam xalq harakatiga aylandi. Ushbu dastur doirasida amalga oshirilayotgan ishlar aholining hayot sifatini oshirib, hududlarda ekologik vaziyatni yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Bu borada qabul qilingan davlat dasturida ham “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko‘chalarda yashillik darajasini oshirish, respublika bo‘yicha yashil bog‘lar barpo etish va barcha shaharlarni to‘liq “yashil belbog‘”lar bilan qamrab olish, shuningdek yo‘l yoqalarini ko‘kalamzorlashtirish va har bir yirik sanoat korxonasi hududida hamda unga tutash hududlarda ham “yashil belbog‘”larni barpo etish rejalashtirilgan. Jumladan, Mudofaa vazirligi ham yurtimizni yashil makonga aylantirishda o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqda.

Mudofaa vazirligi markaziy apparati harbiy xizmatchilari ishtirokida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida Toshkent viloyati Ohangaron tumanidan o‘tgan Toshkent – Ohangaron yo‘lining yoqasida ko‘chat ekish aksiyasi tashkil etilgani ham

– Harbiy xizmatchi uchun Vatanga xizmat qilish faqat qurol bilan emas, balki uni obod qilish bilan ham o‘lchanadi. Daraxt ekish, tabiatni asrash, atrof-muhitga e‘tiborli bo‘lish ham vatanparvarlikning yorqin ko‘rinishidir, – deydi Toshkent viloyati mudofaa ishlari boshqarmasi boshlig‘i podpolkovnik Farhod Alimxodjayev. – Bugun Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari tomonidan o‘tqazilgan har bir ko‘chat aniq o‘lchamlar asosida o‘tqazildi. Nihollarning qurib



aynan ushbu ezgu ishlarning davomi bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ushbu hududda daraxt ko‘chatlarini o‘tqazish uchun 1,5 kilometr masofa ajratilgan bo‘lib, Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari tomonidan yo‘l yoqasiga 1 000 tupdan ortiq terak, qarag‘ay, qayrag‘och daraxt ko‘chati ekildi.

qolishining oldini olish maqsadida nafaqat sug‘orish tizimi yaratilmoqda balki, ularning yashab ketishi uchun har bir ko‘chatga bittadan harbiy xizmatchi biriktirilmoqda. Bu orqali harbiylarimizda

TOSHKENT—OHANGARON YO‘LI YASHILLIKKA BURKANADI



mehnatsevarlik, tabiatga hurmat va javobgarlik tuyg‘usi yanada mustahkamlanadi. Qolaversa, hududning ekologik holati yanada yaxshilanib, Toshkent – Ohangaron yo‘li yashillikka burkanadi.

Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish kerakki, ko‘chatlar suvsizlikdan qurib qolishining oldini olish maqsadida hududdan artizan qudug‘i qazilib, tomchilatib sug‘orish tizimi yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu esa daraxtlarning xatosiz ko‘karishi va ko‘kka bo‘y cho‘zishi uchun muhim chora hisoblanadi. Tomchilatib sug‘orish orqali har bir ko‘chatga zarur miqdorda suv taqsimlanadi hamda suv yer qatlamiga asta-sekin singib, ko‘chatning ildizigacha yetib boradi.

Muhimi, mazkur tashabbus hududlarning cho‘llanish darajasini kamaytirib, chang-to‘zonlar ko‘tarilishining oldini oladi. Shuningdek, bo‘sh maydonlarda yashil hududlarni barpo etish, avtomobil yo‘l yoqalarini ko‘kalamzorlashtirish aholi va yoshlarning ekologik madaniyatini oshirishga ham xizmat qiladi.

**Leytenant
Mansurbek JABBOROV**



Taqqimot

MA'NAVIYAT KUCHI ARMIYA BILAN BIRLASHGANDA



Mudofaa vazirligi boshqaruv apparatida taniqli siyosatshunos, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Otabek Hasanovning "Liderlar kitobi" asari taqdimoti o'tkazildi.

Siyosiy fanlar doktori, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zosi Otabek Hasanovning mazkur kitobi mamlakatimizdagi barcha qatlam vakillari orasida o'z kitobxonlariga ega. Chunki u jamiyatdagi barcha soha vakillari uchun liderlik xarakterini shakllantirish tendensiyasiga ega. Muallifning ushbu asari liderlikka intilishni, g'oliblik uchun kurashni, saodat va komillikka qat'iyat bilan

qadam tashlashni, jasurlik hamda mardlik fazilatlarini hayotiy tajribalar asosida tasvirlab bergani bilan ahamiyatli.

Taqdimot davomida Otabek Hasanov "Liderlar kitobi"ning yozilish tarixi, undagi voqealar, qo'lyozma shaklini chop etishdan avvalgi jarayonlarni tinglovchilarga gapirib berishining o'ziyoq



Suhbat davomida asosan, kelajak avlod vakillari bo'lmish farzandlarimizni ajdodlarga munosib voris qilib tarbiyalashimizda kitobxonlikning o'rni beqiyosligi ta'kidlandi. Buning isboti sifatida taqdimotga kelganlar tadbir yakunida tashkil etilgan kitob yarmarkasidan o'z oilaviy kutubxonasini boyitish uchun sevimli adiblarining kitoblarini xarid qilishdi.

Mazkur tadbir shuni ko'rsatadiki, ma'naviyat va kitobxonlik harbiy xizmatchilar hayotida faqat bilim manbai bo'lib xizmat qiladigan jihat emas, balki ularning shaxsiy kamoli, ruhiy barqarorligi va jamiyatdagi mas'uliyatli faolligi uchun ham muhimdir. Kitob orqali harbiy xizmatchilar nafaqat ta'lim oladi, balki vatanparvarlik va ma'naviy qadriyatlarining ahamiyatini chuqur his etadi, bu esa armiyamizning ma'naviy qudratini yanada mustahkamlaydi.

Asror RO'ZIBOYEV,
"Vatanparvar"



olqishlar bilan qarshilandi. Aslida tadbir "Liderlar kitobi" taqdimotiga bag'ishlangan bo'lsa-da, ma'rifiy yig'ilishda o'zbek va jahon adabiyoti durdonalaridan namunali syujetlar yodga olindi. O'zaro savol-javob jarayonida ofitserlar va Qurolli Kuchlar xizmatchilari o'zlarining ma'rifiy tajribalari bilan o'rtoqlashdi.



Ekskursiya

TARIX BILAN YUZMA-YUZ

Qadim Xorazm zamini... Har bir g'ishti, har bir ko'chasi tarix nafasi bilan sug'orilgan bu muqaddas yurtida go'yo vaqt o'z oqimini to'xtatgandek. Xiva osmonida ming yillar avvalidagi azon sadosi hanuz taralib turganday. Bunda har bir ayvon, har bir darvoza, har bir toshda shon-shuhrat va ma'rifat nafasi ufurib turadi. Zero u tarixiy obidalar, qadimiy Ichan qal'asida hamon odamlar yashayotgan dunyodagi kamdan kam eski shaharlardan biri. Bunda tarix nafaqat yodgorliklarda, balki odamlarning ko'zlarida, ularning qalb xotirasida ham yashaydi. Shuning uchun ham bu diyorga tashrif faqat sayohat emas, balki Vatanning o'tmishi bilan yuzma-yuz uchrashuv hamdir.

Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti kursantlarining Ichan qal'a tarixiy majmuasiga qilgan tashrifi shu jihat bilan qimmatli bo'ldi. Sayr davomida kursantlar Xiva xonlari istiqomat qilgan, har bir toshda ajdodlar zakovati, mehnati aks etgan qadimiy saroylar, nafis go'zallikka burkangan madrasalar va muazzam maqbaralar bilan



yaqindan tanishdi. Yo'l boshchilar kursantlarga moziyda o'ziga xos tamaddun, ilm-fan va madaniyat markazi bo'lgan Xorazmshohlar poytaxti – Xiva shahrining yuzaga kelish asoslari, shaharning obodonchiligi, madrasa va masjidlar, karvonsaroylar va boshqa tarixiy binolarning qurilish tarixi, uslub va andazalari haqida ishtirokchilarga atroflicha

tushunchalar berdi. Shu bilan birga Xorazm zaminidan yetishib chiqqan buyuk allomalar haqida ularning hayoti, ilmiy faoliyati hamda jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissi haqida ham qiziqarli ma'lumotlar ulashdi.

Muhimi, bu ma'naviy sayohat kursantlar qalbida milliy qadriyatlarga hurmat, tarixiy



merosni avaylab-asrash, ajdodlar qoldirgan beqiyos boyliklarga nisbatan g'urur va faxr tuyg'usini yanada mustahkamladi. Ular uchun Ichan qal'a faqat tarixiy yodgorlik emas, balki Vatanga muhabbat va sadoqat ramziga aylandi.

Podpolkovnik Sh. ASHUROV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti
matbuot xizmati boshlig'i



Men g'olib!

“Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi “Muborak” dala-o'quv maydoni “Eng ilg'or jangovar guruh” hamda “Eng ilg'or tank guruhi” yo'nalishi bo'yicha musobaqalarning Mudofaa vazirligi bosqichiga mezbonlik qildi.

HARBIY

“Men g'olib!” shiori ostida o'tkazib kelinayotgan armiya o'yinlari doirasidagi mazkur bellashuvlarning tantanali ochilish marosimida Mudofaa vazirligi mas'ul ofitserlari, okrug qo'mondonligi hamda faxriy harbiylar ishtirok etdi. So'z olganlar barcha ishtirokchilarga muvaffaqiyat tilab, shu kunga qadar egallagan bilim va ko'nikmalarini to'laqonli namoyish etishiga ishonch bildirdilar. Qolaversa, harbiy xizmatchilarning tanklarda tantanali marsh o'tishi tadbirga o'zgacha shukuh bag'ishladi.

Har ikki yo'nalish bo'yicha bahslar maydonida harbiy okrug bosqichida eng sara deb topilgan harbiy xizmatchilar jamlandi, ular o'z okrug sha'nini himoya qilish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdi. Harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligini mustahkamlash, harbiy okruglar o'rtasida o'zaro sog'lom raqobat muhitini shakllantirish uchun xizmat qiladigan ushbu bellashuvlar Mudofaa vazirligi mas'ul ofitserlari tomonidan xolis va shaffof tarzda baholab borildi.

Dastlabki shartga ko'ra, jangovar guruh harbiy xizmatchilari qo'ljangi, shuningdek tank guruhi bir kilometrlik masofaga yugurish hamda tosh ko'tarish mashqlarini bajarish orqali o'zlarining bardamligi, chaqqonligi va irodasini namoyon etdi. Navbatdagi shartlarda jangovar guruh komandirlari va o'rinbosarlari shartli taktik belgilarni yechish, mutaxassisliklar bo'yicha test va amaliy sinovlarni topshirish hamda jangovar vazifani bajarish yuzasidan ko'nikmalarini sinovdan o'tkazdi. Bundan tashqari, jangovar va ruhiy tayyorgarlikni oshirishga qaratilgan majmuaviy mashg'ulotlar, otishning taktik va texnik elementlarini bajargan musobaqa ishtirokchilari

chinakam mardlik va matonat namunasini ko'rsatdi. Har bir harakat, har bir mashq haqiqiy jangovar vaziyatga tayyorgarlik darajasini yaqqol ifoda etdi.

Eng ilg'orlikka da'vogar tank guruhlariga esa zirhli texnikalar yordamida dala-o'quv maydonidagi to'siqlar yo'lagida maxsus nazorat mashqlarini mohirona amalga oshirdi. Bu sinovlar nafaqat ularning jismoniy tayyorgarligi, balki taktik fikrlash, tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini ham sinovdan o'tkazdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, “Eng ilg'or tank guruhi” yo'nalishi bo'yicha uchinchi o'rin Shimoli-g'arbiy harbiy okrug jamoasiga nasib etdi, ikkinchi o'ringa Toshkent harbiy okrug jamoasi egalik qilgan bo'lsa, birinchi o'rinni Janubi-g'arbiy



KBHX, oddiy askar Ismoil BEKJANOV,
kichik serjant Asliddin SAIDUMAROV



MAHORAT SINOVVI



maxsus harbiy okrug (*mezbon*) jamoasi qo'lga kiritib, musobaqaning mutlaq g'olibi bo'ldi. "Eng ilg'or jangovar guruh" yo'nalishida ham Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug jamoasi shohsupaning eng yuqori pog'onasidan o'rin egalladi.

– Mazkur tanlov milliy armiyamiz harbiy xizmatchilarining jangovar tayyorgarligini oshirish, o'zaro tajriba almashish va bilimlarimizni mustahkamlashga xizmat qildi, – deydi "Eng ilg'or tank guruhi" yo'nalishi bo'yicha musobaqaning Mudofaa vazirligi bosqichida g'olib chiqqan jamoa a'zosi kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Shohrux Xolqo'ziyev. – Jasorat, fidoyilik va professionallik maydoniga aylangan ushbu musobaqa harbiy xizmatchilarning nafaqat shu vaqtga qadar egallagan bilimi, mahorati va ruhiy barqarorligini sinovdan o'tkazdi, balki ularning jamoaviy hamjihatligini yanada mustahkamladi.

Tantanali taqdirlash marosimida musobaqa g'oliblariga kubok, diplom va qimmatbaho sovg'alar topshirildi. Qarshi garnizoni ma'naviyat va ma'rifat markazi harbiy orkestr jamoasining musiqiy chiqishlari barchaga bayramona kayfiyat ulashdi.

**Katta leytenant
Dilshod RO'ZIQULOV,
"Vatanparvar"**

Musobaqa

YILLAR DAVOMIDA SAYQALLANGAN MAHORAT



Bundan bir necha yillar avval Mudofaa vazirligi Mutaxassis va xizmat itlarini tayyorlash markazi o'z faoliyatini yangi, har tomonlama zamonaviy bazada boshlashi milliy armiya tizimida harbiy kinologiya sohasini yanada rivojlantirish uchun tashlangan navbatdagi qadam bo'lgandi. Soha mutaxassislarning xizmat itlarining zotini ko'paytirish, ularni belgilangan vazifalarni bajarishga o'rgatish borasidagi tinimsiz izlanishlari va mehnatlari evaziga milliy armiyamizda qator yutuqlarga erishilgani diqqatga sazovor.

O'tgan davr mobaynida markaz boshqa kuch tuzilmalari va muhandis-sapyor bo'linmalari bilan hamkorlikda ish olib borish bilan birga xalqaro va respublika miqyosidagi musobaqalarda munosib qatnashib kelyapti. 2024-yili harbiy xizmatchilar o'rtasida shaxsiy birinchilik bo'yicha "Eng yaxshi kinolog" musobaqasining ilk marta tashkillashtirilishini ham markaz faoliyatining yutug'i sifatida baholash mumkin. Nega deysizmi? Negaki harbiy

bahslarida har bir harbiy okrug va qo'mondonliklardan ikki nafardan mutaxassis qatnashdi va ular yuqorida sanab o'tilgan shartlar bo'yicha o'z kasbiy mahoratlarini namoyish etdi. Bahslar davomida o'ttiz nafarga yaqin harbiy kinolog xizmat itlari bilan birgalikda bir-biridan murakkab shartlarni bajarishdi. Shartlar buyruqqa bo'ysundirish, iz topish, 300 metrlik to'siqlar yo'lagini bosib o'tish, mohir o'qchi va maxsus topshiriqlarni amalga oshirish kabi beshta yo'nalishni

kabi turli texnik anjomlar ishga tushirildi. Bino ichidan portlovchi hamda giyohvand moddalar, qurol-yarog', o'q-dori yashirilgan nuqtalarni izlab topishda bunday texnik qurilmalarning imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalanildi.

Musobaqaning yakuniy natijalariga ko'ra, uchinchi o'rin bir yo'la ikki nafar qatnashchiga nasib etdi. Sharqiy harbiy okrug harbiy xizmatchisi, kichik serjant Sardor Jalilov ("Mutant" laqabli nemis ovcharkasi bilan) va Mudofaa

bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Hakimboy O'ktamov murosasiz kurashda II darajali serjant Daler Ikromovdan biroz ortda qoldi. Buning natijasida Mudofaa vazirligiga qarashli qo'mondonlik harbiy xizmatchisi, II darajali serjant Daler Ikromov ("Greta" laqabli Belgiya ovcharkasi bilan) 2025-yilning "Eng yaxshi kinolog"i e'tirofiga sazovor bo'lgan.

Tadbir yakunida "Eng yaxshi kinolog" musobaqasi g'olib va sovrindorlariga kubok, esdalik



kinologiya yillar davomida sayqallanib boriladigan kasblardan biri. Shuning uchun qo'shinlarda harbiy kinolog va ularning xizmat itlari turli vazifalarni bajarishga ixtisoslashgani, ana shu ixtisoslik ko'nikmalari musobaqa shartlari sifatida namoyish etilishi mutaxassislarning haqqoniy bahosini yuzaga chiqaradi.

Shaxsiy birinchilik ko'rinishida ikkinchi marta tashkillashtirilgan "Eng yaxshi kinolog" musobaqasining bu yilgi

o'zida mujassamlashtirdi. Muhimi, musobaqa davomida Mudofaa vazirligi qo'shinlarida jangovar va boshqa vazifalarni bajarishda xizmat itlari ko'magi hamda ular yordamida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish qanchalik ahamiyatli ekani ko'zga yaqqol tashlandi.

Maxsus topshiriqlar shartini bajarish jarayonida masofadan aloqa hamda videokuzatuv vositalari, GPS qurilmasi

vazirligiga qarashli qo'mondonlik harbiy xizmatchisi, III darajali serjant Shohrux Javqochev ("Boyar" laqabli Belgiya ovcharkasi bilan) beshta shart davomida teng ochko to'pladi. Toshkent harbiy okrugi harbiy xizmatchisi kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Hakimboy O'ktamov o'zining "Reks" laqabli Sharqiy Yevropa ovcharkasi bilan shohsupaning ikkinchi pog'onasini egalladi. Kontrakt

sovg'alar hamda diplomlar topshirildi. Shuningdek, ular orasidan kelgusida xalqaro musobaqalarda Mudofaa vazirligi sharafini munosib himoya eta oladigan nomzodlar tanlab olindi. Qisqa qilib aytganda, xizmat burchini bajarish davomida kinologlik mutaxassisligini mukammal egallagan bu yigitlarning mahoratlari yana bir marta sinovdan o'tkazildi.

Asror RO'ZIBOYEV,
"Vatanparvar"



Bellashuv

“CHEGARACHILAR” MUSOBAQA G‘OLIBI

DXX Chegara qo‘shinlarining maxsus bo‘linmalari o‘rtasida “Eng ilg‘or razvedka-qidiruv guruhi” musobaqasi tashkil etildi. Unda hududiy bosqichlarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, finalga yo‘llanmani qo‘lga kiritgan 6 ta jamoa o‘zaro bellashdi.



Birinchi bosqichda, jamoalar shartli chegara buzg‘unchisining harakat yo‘nalishini aniqlab, bosh hakamga ma‘lumot berdi. Bosh hakamning ko‘rsatmasiga asosan, davlat chegarasi buzilgan yo‘nalish bo‘yicha tezkorlik bilan harakatlanib, razvedka-qidiruv tadbirlari amalga oshirildi. Ushbu shart harbiy xizmatchilarning yuqori jismoniy tayyorgarligi, har qanday sharoitda ham jangovar harakatlarga shay ekanini amalda namoyon etib berdi.

Ikkinchi bosqichda esa ishtirokchilar tunda shartli chegara buzg‘unchilari joylashgan joyni aniqlab, ularning izidan

ko‘nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Navbatdagi uchinchi shartda, maxsus guruh uzoq masofani bosib o‘tganidan so‘ng belgilangan sohani o‘rganib, ehtimoliy dushmanning asosiy harakat yo‘nalishlarini to‘shish maqsadida o‘t ochish istehkomlari va muhandislik uskunalarini tayyorlash hamda jihozlash kabi vazifalarni amalga oshirdi.

Musobaqa bosqichlaridan birin-ketin o‘tib kelayotgan jamoalar to‘rtinchi shartda 25 metr kenglikdagi tog‘ daryosi o‘rtasiga tortilgan arqonlar yordamida o‘zlari va yarador jamoadoshlarini belgilangan vaqt oralig‘ida talafotlarsiz olib o‘tishlari zarur



nishonlarni aniq mo‘ljalga olgan holda g‘alaba uchun muhim bo‘lgan ballarni qo‘lga kiritdi.

Musobaqaning so‘nggi sharti ishtirokchilarning jismoniy salohiyatini yana bir bor sinovdan o‘tkazdi. Bunda harbiy xizmatchilar o‘zlariga birlashtirilgan qurol-aslahalar va harbiy anjomlar bilan 10 kilometr masofani yugurgan holda bosib o‘tdi.

Uch kun davom etgan musobaqada o‘zaro kuch sinashgan jamoalar harbiy orkestr sadolari ostida saf tortdi. Yakuniy natijalarga ko‘ra, uchinchi o‘rinni Surxondaryo viloyatidan qatnashgan “Sarhad himoyachilari” jamoasi egallagan bo‘lsa, ikkinchi o‘ringa Sirdaryo viloyatining “Sarhad lochinlari” jamoasi loyiq deb topildi. Shohsupaning eng yuqori cho‘qqisi esa Andijon viloyati sharafiga himoya qilgan “Chegarachilar” jamoasiga nasib etdi.

– Musobaqa shiddatli va murosasiz kechdi. Chunki barcha jamoalar shartlarga

juda yaxshi tayyorgarlik ko‘rib kelgan ekan. Biz ham safdoshlarim bilan birga samarali harakatlanib, g‘alabani qo‘lga kiritganimizdan, kuchlilar ichida eng kuchli bo‘lganimizdan xursandmiz, – deydi mayor Elbek Xo‘janazarov.

Albatta, bu kabi musobaqalar harbiy xizmatchilar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish bilan birga, harbiy an‘analarni yanada mustahkamlashda ham muhim omil bo‘lib xizmat qilishi, shubhasiz.

Mayor
Farida BOBOJONOVA,
DXX Chegara qo‘shinlari



harakatlanishlari talab etildi. Ta‘kidlash kerakki, ushbu shart harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy holati va jangovar sifatлари darajasini belgilash bilan bir qatorda, ularning ko‘rish cheklangan holatlarda topshirilgan vazifani samarali bajarish yuzasidan amaliy

bo‘ldi. Ushbu shartni muvaffaqiyatli bajarish harbiy xizmatchilardan jamoaviy jipslik, jismoniy salohiyat va mustahkam irodani talab etdi.

Merganlik mahoratini sinovdan o‘tkazgan beshinchi shartda esa qatnashchilar guruh qurollaridan ko‘krak qiyofali va bo‘y baravar



Birinchi jahon urushi ishtirokchisi, 1914-yili Kavkazorti janglarida yaralanib asirga tushgan, so'ngra Krasnoyarskdagi tutqunlar lageridan qochib, Turkistonga kelgan va bu yerda uzoq vaqt mobaynida o'qituvchilik qilgan turk subayi Roji Chakiro'z "Xotiralar"ida saksonga yaqin asir turk subayi Turkistonda boshdan kechirgan voqealar haqida hikoya qilinadi.

Chakiro'z o'z "Xotiralar"ida XX asr boshlaridagi Turkiston manzaralarini chizib, u vaqtdagi Toshkent, Buxoro, Chorjo'y kabi shaharlarda mavjud bo'lgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. O'zi o'qituvchilik qilgan "Turon", "Namuna", "Irfon", "Muxtoriyat" maktablarining faoliyati haqida, Turkistondagi jadidlik harakati boshida turgan ziyolilar va Buxoro Muxtor Jumhuriyati rahbarlari bilan bo'lgan muloqotlar, Hamza Hakimzoda Niyoziy sayyor truppasida olib borgan faoliyati haqida hikoya qiladi.

Roji CHAKIRO'Z

YURAGIMGA YAQIN GO'SHALAR

TURK SUBAYI (OFITSERI)NING TURKISTON XOTIRALARI (1914 – 1923-YILLAR)

1918-yilning yanvar oyi boshlarida Toshkent vokzaliga keldik. Poyezddan tushishimiz bilan ikki hamrohimizni "Ulug' Turkiston" gazetasi idorasiga jo'natdik. U vaqtlarda gazetaning sohibi Muxtor Bekir bizdan biroz avval Toshkentga kelgan turk subaylarining manzillarini topishga yordam berdi. Bular Ziyobek (*Boyburt qaymaqomi – ijroqo'm raisi*), to'pchi Haydar Shavqiy, yuzboshi G'olib, yuzboshi Shukri, Sulaymon Somiy, assubay (*kichik zobit*) Sayid Ahroriy (*asli Turkistonning Xo'jand shahridan*) kabi do'stlarimiz edi.

Biz ko'plashib ular turgan "Irfon" maktabiga yo'l oldik. Do'stlarimiz bilan ko'rishganimizdan so'ng bizni yaqindagi bir hammomga olib bordilar. Hammom Istanbul yoki Onado'lidagi hammomlardan deyarli farq qilmas edi. Vagonlarda uzoq vaqt qilingan sayohatdan keyin yangidan dunyoga kelgandek bo'ldik. Do'stlarimiz bergan yangi kiyimlarni kiyib oldig-u eskilarini esa yoqib yubordik. O'sgan soch-soqol va eski kiyimlarda xotira uchun rasimga tushmaganimizga xali-hanuzgacha afsuslanaman.

Avval "Izhor-ul Haq idoraxonasi" bo'lgan xonaga yetti kishi joylashdik. Qolgan ikki do'stimizga boshqa yer topdik. Yo'lda og'ir kasallikka duchor bo'lgan Mexmetni esa Eski shahardagi kasalxonaga yotqizdik.

* * *

Mexmetbey zotiljam bo'lgan ekan. Sog'ayib kasalxonadan chiqishi bilan yo'limizda davom etmoqchi bo'ldik, ammo Ashxobod yo'li yopilgani haqidagi xabar bizni shashtimizdan qaytardi. Shimolda esa general Dutov qo'shinlari bo'lib, qizillar va oqlar o'rtasida janglar davom etardi. Shu sababli, Toshkentda yangi ochila boshlagan maktablarda ma'lum bir muddat o'qituvchilik qilishga qaror qildik.

Demak, Onado'lidan minglab kilometr uzoqlikda joylashgan bu o'lkada o'qituvchilik qilish peshonamizga yozilgan ekan. Zotan, bizgacha bu yerga kelgan turk subaylari ham o'qituvchilik qilayotgan edi. Do'stlarimizdan Haydar Shavqiy – Xadra Ko'kcha mahallasidagi 1-"Namuna" maktabida dars berardi.

G'olib – Shayxontohur–Mergancha mahallasidagi 6-"Turon" maktabida, yuzboshi Shukri 2-"Muxtoriyat" maktabida ishlar va "Turon kuchi" guruhiga rahbarlik qilardi. Sayid Ahroriy esa Beshyog'och mahallasidagi 12-"Turon" maktabida ishlar va "Izchi" guruhiga rahbarlik qilardi. Istanbulda tahsil olib qaytgan Abdurahmonbek O'rda og'zi mahallasidagi 10-"Irfon" maktabida ishlar va "Taraqqiy" jamiyatiga rahbarlik qilar edi.

Meni ham 6-"Turon" maktabiga yuborishdi. **Ishni maktab qoshida "Turk kuchi" guruhini tashkil etishdan boshladim.** Shunday qilib, besh-olti sinfdan iborat bo'lgan maktablarda turkistonlik o'qituvchilar bilan birga biz, Onado'lidan kelgan asir turk subaylari ham dars bera boshladik.

* * *

Guruhimiz o'z safiga yoshlarni birlashtirgan jamiyat sifatida tashkil etilgan bo'lib, unda jismoniy tarbiya mashqlari va sport musobaqalari o'tkazilar edi. Har bir guruhda kichik musiqa orkestri bo'lgani uchun biz ham ishimizga bir guruh musiqachilarni jalb etdik. Men ohanglarni qog'ozga tushirishni bilmaganim uchun, **ular bir necha marsh kuyini mening xirgoyimdan yozib olishdi. Shu bahonada, bir necha harbiy marshlarning nota yozuvlari yozilib qoldi.**

JADIDLIK HARAKATI

Biz Toshkentga kelganimizda, bu yerda jadidlik harakati boshlanib ketgan va shaharning har tarafga yoyilgan edi. Ba'zi yerlarda esa "Русское туземное училище" maktablari ochilib, yerli aholi o'rtasida rus madaniyati urug'larini sochish harakati mavjud edi. Bunga qarshi Qrimli Ismoilbek Gaspirali ta'limotini dasturilamal qilgan bir guruh turkistonlik ziyolilar yangi usuldagi maktablarini ochayotgan edilar. Jadidlik harakati boshida Mahmudxo'ja Behbudiy, Usmon Xo'ja va Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ziyolilar turardi. **Biz kelgan vaqtda (1918) bunday boshlang'ich**

va o'rta maktablarning soni yetmish ikkiga yetgan edi. Birin-ketin ochilayotgan maktablarga o'qituvchi topish qiyin ish edi. Hattoki rus litseylarining oxirgi sinflarida o'qiyotgan turkistonlik o'quvchilardan bir qismi bu maktablarda dars berish uchun jalb etila boshlandi. Bundan tashqari, o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida uch va olti oylik "O'qituvchilarni tayyorlash kurslari" ham ochildi.

* * *

Men muallimlik qilayotgan "Turon" maktabida rus tili fanidan bir chex millatiga mansub o'qituvchi dars berardi. U vaqtda "Turk kuchi" guruhini tashkil etish bilan mashg'ul edim. Musulmon bo'lmagani uchun, faoliyatimni bu chekning oldida olib borishim biroz murakkabliklar tug'dirdi. Bu haqda maktab direktori Majid Qodiriyga aytishga majbur bo'ldim. Unga: "Bu yerda yo u qolishi kerak yoki men!" dedim. Shundan keyin uni boshqa maktabga yuborib, o'rniga Ra'no xonim degan yosh turkistonlik qizni ishga olishdi. Ra'no xonim u vaqtda rus litseyining bitiruvchi sinfida o'qir edi. Bo'lajak xotinim Ra'no xonim bilan shu tariqa tanishdim.

TEATR FAOLIYATLARI


Farg'ona vodiysida Musajon va Hamza Hakimzoda Niyoziy tomonidan tashkil etilgan musiqali teatr truppasi bizning "Turk kuchi" guruhi bilan birlashish istagini bildirdi. Biz ham bunga rozi bo'ldik. Bu vaqtda truppa Toshkentga kelib, yozuvchi Hamza Hakimzodaning "Loshman fojiasi" nomli pyesasini qo'yayotgan edi. Unda Chor Rossiyasining Birinchi

jahon urushi davrida Turkiston xalqiga nisbatan o'tkazgan zulmi haqida hikoya qilinardi. O'sha yillari qozoq, qirg'iz, o'zbek va turkmanlarni front ortida xizmat uchun zo'rlik bilan mardikorlikka olish ishlari boshlab yuborilgan edi. Mahalliy aholi bunga qarshi chiqqanlarida askarlar ularga qarshi qurol ishlatgan edilar. Natijada 1916-yil umumxalq Turkiston qo'zg'oloni boshlanib ketgan edi. Asarda ana shu qonli voqealar haqida hikoya qilinardi.

Hamza Hakimzoda rahbarlik qilayotgan ushbu sayyor truppaning erkak san'atkorlarining aksariyati o'zbek edi. Ularning ichida birgina tatar ayol san'atkor bor edi. Bizning guruh bilan birlashganidan keyin truppga Fotima Tutash degan yana bir tatar qizi kelib qo'shildi. "Tutash" so'zi tatarchada "erga tegmagan qiz, bokira" ma'nolarini beradi. O'zbeklar u vaqtlarda qizlarining teatrdagi ishlashiga ruxsat bermasdi.

Teatrning ayol san'atkorlarga bo'lgan ehtiyoji tatar, arman va yahudiy xonimlarni sahnaga jalb etish yo'li bilan qondirilar edi. Masalan, o'zbeklarning eng mashhur raqqosasi – arman qizi Tamaraxonim edi.

Guruhlarimizning birlashishi tantanali bir marosim bilan amalga oshirildi. Hamzaning teatr truppasi musiqa sadolari ostida Toshkentning Yangi shahar qismidan, bizning "Turk kuchi" guruhimiz esa maxsus tikilgan kiyimlarda va orkestr



sadolari ostida Eski shahardan yo'lga chiqdik. Birozdan keyin guruhlar O'rda og'zi degan yerda uchrashib, birgalikda "Turon" maktabi tomon yo'l oldilar. Teatrlashtirilgan yurish davomida har ikki guruh musiqachilari "Eski do'st" (*aslida olmonlarning "Alte Kamarat"*) nomli marshini chalib bordilar.

"Turon" maktabi hovlisida Muhiddinqori tomonidan mavlud o'qildi, dasturxonga osh tortildi.

Yozuvchi Hamza Hakimzodaga maktabdagi bo'sh xonalardan biri ajratilib, u har safar Toshkentga kelganida shu yerda qoladigan bo'ldi. Birlashgan teatr truppasiga ham Hamzaning o'zi rahbarlik qila boshladi.

SOTSIALISTLAR O'RTASIDAGI TO'QNASHUVLAR

1919-YIL 6-YANVAR.

"Turon" maktabida dars berardim. Kutilmaganda, tashqaridan otishma ovozi keldi. Birozdan keyin bunga to'p va bomba ovozlari qo'shildi. Biz darslarni to'xtatib, o'quvchilarni uylariga jo'nata boshladik. Eshitishimizga qaraganda, Toshkentda yana bir aksilinqilobiy harakat boshlangan ekan. Turkistonlik do'stlarimdan biri mening teridan tayyorlangan kiyim (*kojanka*)da yurishim xatarli ekanini aytdi. Men darhol o'zim yashayotgan Nazar qorining O'rda yaqinida joylashgan musofirxonasiga "jin ko'cha"lar orqali yo'l oldim. Uyga yetib kelgach, voqealarni derazadan kuzata boshladim.

Bir yonda (*"Askariy maktab"* – *"Kadetskiy korpus"* bo'lgan yerda) general Osipov qo'shinlari (*mensheviklar*), ikkinchi (*Qo'rg'ontepa*) tomonda bolsheviklar, uchinchi tomonda esa so'l sotsial revolyutsionerlarning qurollangan guruhleri bir-biri bilan jang qilar edi. Eng dahshatlisi shundaki, kimning kimga qarshi urishayotgani ma'lum bo'lmagan ushbu qonli to'qnashuvda aybsiz yerli aholi halok bo'layotgan edi.

Birinchi kunlarda general Osipov qo'shinlarining qo'li baland kelib, qonli to'qnashuvlarda bir necha bolshevik komissari ham halok bo'ldi. Vaziyat keskinlashganini ko'rgan so'l eserlar bolsheviklar bilan birlashib, mensheviklarga qarshi hujumga o'tganlarida mensheviklar chekinishga majbur bo'ldilar. Asir bo'lganlari esa "Askariy maktab" orqasida qazilgan xandaqlar oldida qatl etilib, umumiy mozorga ko'mildi. Qo'lga tushgan yosh rus askarlari yuk mashinalarida olib kelinib, u yerda otib tashlanganini o'z ko'zim bilan ko'rdim.

Tarixda "Osipov voqeasi" deb nom olgan bu qonli to'qnashuv natijasida biz hammamiz uzoq vaqt ruhan ezilib yurdik.

BIR NAMOYISH TAFSILOTI

1919-YILNING OKTABR OYI OXIRLARI. Oktabr inqilobining ikki yilligi nishonlanayotgan edi. Chor hukumati davrida Turkiston general-gubernatori Kaufmanning Toshkent markazi (*hozirgi Amir Temur xiyoboni – tarj.*)da o'rnatilgan haykali oldida tantanali namoyish bo'lib o'tishi kerak edi.

Toshkentda hokimiyatni qo'lga olgan qizil komissarlar haykal oldida turar, maktab o'quvchilari esa ularning oldidan qator-qator bo'lib o'tib borar edi. **Maktabimiz o'quvchilari ham ushbu namoyishda ishtirok etdi. Barcha o'quvchilarning kiyimi bir xil – jigarrang edi.**

Faqat yoqa va do'ppilari maktabiga qarab o'zgarardi. "Temur" guruhi yashil, "Izchi" – qizil, "Taraqqiy" – moviy, "Turon kuchi" guruhi a'zolari esa to'q qizil do'ppilarda edi. Barcha o'quvchilar ozoda va sarishta kiyingandi.

Rus maktablari o'quvchilari esa rang-barang liboslarda namoyishdan o'tdilar. Buni ko'rgan Turkiston komissarlaridan biri asabiylashib, o'qituvchilarni bolaxonador qilib so'kdi.

Kaufman haykali oldida she'rxonlik ham bo'lib o'tdi. Mening o'quvchilarim orasida Kamol degan bir bola bor edi. U mendan o'rgangan shoir Emir Bulentning bir she'rini turk tilida hayajon bilan o'qib berdi. Shunda komissarlardan biri she'rning tarjimasi bilan qiziqdi va qulog'iga chalingan "... G'arb zolimi..." iborasi bilan nima deyilmoqchi ekanini so'radi. Shunda turkistonlik komissarlardan biri: "Bu bilan ingliz mustamlakachilari nazarda tutilmoqda. She'r hammamiz uchun dushman bo'lgan inglizlarga qarshi yozilgan", deb javob berdi. Bu javobni eshitib, rus komissarining ko'ngli joyiga tushdi.

* * *

Toshkentda yana bir bayram nishonlanayotgan edi.

Shayxontohur maydonida maktab o'quvchilari mahoratlarini namoyish etardi. Taklif etilganlar orasida gimnastika jamoasi rahbari Gexard ismli bir chex ham bor edi. "Temur" guruhi qatnashchilari do'stimiz Haydar Shavqiy o'rgatgan "shveysar" usulidagi harakatlarni, mening "Turon" maktabim o'quvchilari esa sport jihozlaridan foydalanib, "trapetsiya", "xalqa", "parallel" kabi gimnastika mashqlarini mahorat bilan bajardilar. Tomosha so'ngida Gexard mening oldimga kelib, "Sokol" jamoasiga a'zo bo'lishni taklif etdi. Men esa Turkistonda vaqtincha ekanimni va qancha qolishim ma'lum emasligini ro'kach qilib, uning taklifini rad etdim. Lekin shunga qaramay, biror kun uning oldiga borishga va'da berdim.

ChK HARAkatga o'tdi

Anvar Poshsho kelib ketganidan keyin 9-mart kuni Buxoroda bo'lgan barcha turk subaylarini ChK binosiga to'pladilar. Hammamizni bir xonada kechgacha ushlab turishdi. Fayzulla Xo'jayevning aralashuvidan keyingina meni qo'yib yubordi. Bu voqeadan keyin xotinim bilan men Chorjo'yga ketishga majbur bo'ldik.

Men Chorjo'yda yangi ochilgan va Amudaryo qirg'oqlarida joylashgan Fayzulla Xo'jayev nomidagi Muallimlar institutiga direktor qilib tayinlandim. Xotinim Ra'no xonim ham bu institutda rus tilidan dars bera boshladi. Institut

bitiruvchilari atrofda boshlang'ich maktablarga muallim qilib yuborilar edi. O'qish jarayonida talabalarning malakasini oshirish maqsadida institut qoshida boshlang'ich maktab ham ochildi. Yetakchi o'qituvchi qilib qozon tatarlaridan Kuneshov degan odam tayinlandi. **Maktabni bitirgan o'quvchilarni chet elda o'qishni davom ettirish uchun yuborish haqida ham fikrlarimiz bor edi. Bu niyatimiz amalga oshib, o'quvchilarning birinchi guruhi 1922-yilda Olmoniyaga, ikkinchi guruhi esa Onado'liga yuborildi.** Onado'liga ketgan o'quvchilar Samsun va Kastamonu hududlarida ta'lim olganlarini keyinroq eshitdim.

Yana ikki talabalar guruhi Moskvada o'qish uchun yuboriladi. O'rni kelganda, Buxoro hukumatining Anqara bilan aloqalari haqida ham aytib o'tish lozim. **Buxoro hukumati tarafidan tayinlangan hay'at Anqaraga hadya sifatida ikki asl qilich va bir Qur'oni karim nusxasini olib bordi.**

Qilichlardan biri shaxsan Otaturkka, ikkinchisi esa Izmir shahrini ozod etishda jonbozlik ko'rsatib, shaharga birinchi bo'lib kirgan qo'mondonga berish uchun yuborilgan edi (*ba'zi manbalarda qilich uch dona bo'lib, birini Jamol poshsho taqqan degan ma'lumotlar ham bor – tarj.*).

Institutimizni bitirgan ilk guruh vakillari o'qituvchilar sifatida maktablarga taqsimlangach, men ham mamlakatga qaytish taraddudini ko'ra boshladim (1923). **Bu vaqtda Chorjo'yda rus harbiy maktabi tashkil etilib, unda meni va boshqa hamkasabalarimni dars berishga majbur qila boshlagan edilar.**

Maktabning qanday fanlardan ehtiyoj bo'lsa, unga ko'ra bir-ikki o'qituvchi tavsiya eta olishimni aytdim. Ammo mening ham dars berishim kerakligi aytili. **Men esa zaxiradagi subay bo'lganim sababli dars bera olmasligimni tushuntirishga harakat qildim.**

HAYAJONLI BIR VOQEA

Bir kuni uyda mehmonlar bilan o'tirgan edik. Qulog'imga qandaydir tovush chalindi. Tashqariga chiqdim. Noma'lum bir odamning sharpasini sezganday bo'ldim. Birdan ro'paramda notanish bir rus yigit paydo bo'lib (*keyinroq u harbiy maktab tinglovchisi ekani ma'lum bo'ldi*), menga pichoq bilan hamla qildi. Buni ko'rgan Tangriberdi degan turkman o'quvchim boshqa bolalarni uyg'otib chiqdi va hammalari bir bo'lib u yigitga tashlandilar. Bosqinchi militsiya bo'limiga olib ketildi.

Tergovda yigit mast bo'lib, nima qilganim esimda yo'q, deb turib oldi. Natijada u ozod etildi. Bu voqeadan keyin talabalarim guruh-guruh bo'lib, meni muntazam qo'riqlab yuradigan bo'lishdi.

QAYTISH

Mamlakatimga qaytish vaqti kelgan edi. Hujjatlarimni tayyorlab, rasmiy idoralardan ruxsat oldim. U vaqtlarda ChKdan ham viza olish lozim edi. U yerda bordim.

Yoshgina bir xodim meni qarshi oldi. Iltimosimni tinglab bo'lgach, "Albatta, ruxsat beramiz", dedi. Orqasidan esa **"Uzoq vaqt mobaynida bu mamlakatda o'qituvchilik qildingiz. Shu sababli sizdan Buxoro haqida jo'g'rofiy va tarixiy ma'lumotlar berishingizni iltimos qilamiz", – deb qo'shimcha qildi.** Bu yerga yaqinda kelganini va Buxoro haqida hech qanday ma'lumoti yo'qligini aytib, "Siz fikrlaringizni qog'ozga tushirib, menga olib keling va vizangizni oling", dedi. Boshqa choram bo'lmagani uchun bu taklifni qabul qilishga majbur bo'ldim. Maktabga qaytib kelganimda rus tili o'qituvchisi Semyonov ahvolimni ko'rib, "Biroz xayolchan ko'rinasan", dedi. Bu odam missioner Lazarevskiy maktabida ta'lim olgan bo'lib, poshsho tarafdori, Xitoy vakolatxonasida ishlagan sharqshunoslardan edi. U xotini va farzandlari bilan anchadan beri Buxoroda yashar edi.

Maktabimizga Semyonovni men olib kelgan edim. Shu sababli ahvolni unga tushuntirdim. U esa "Sen xafa bo'lma. Matnni men tayyorlab beraman, sen esa ChKga olib borib berasan, xolos", dedi. Aytganidek qildik. Tayyorlab bergan ma'lumotnomani o'qib chiqdim. Unda umumiy ma'lumotlardan boshqa narsa yo'q edi. Shuning uchun uni ChKga olib bordim. Yosh chekist hujjatni o'qib chiqdi, nima sababdandir miyig'ida kuldi va vizamni berdi. Ertasi kun poyezdda Ashxobod orqali Krasnovodskka ketadigan bo'ldim. Vokzalga borganimizda haligi chekistni ham u yerda ko'rdim. Uning maqsadini aniqlashni bir o'quvchimga topshirdim. Birozdan keyin u menga ChK xodimi men chiqqan vagon nomerini yozib olganini ma'lum qildi. Oldinda meni nimalar kutayotganini tushunganday bo'ldim...

VUSLAT – VISOL DEGANI

Vatanga kelib ilk qadam bosgan yerimiz Trabzon tuproqlari bo'ldi. Endi jondan aziz zaminda ozod va baxtiyor edik. Barcha xavf-xatar ortda qolganini endi his qildik. Xolis Afandining "Erzurum" mehmonxonasi tomon yo'l oldik. **U vaqtda Trabzon mening eski harbiy bo'linmam – Uchinchi Firqa qarorgohi edi.**

Anvar Poshshoning kuyovi, keyinchalik bosh qo'mondon darajasiga yetishgan Kozim Orbay esa uning qo'mondoni edi. U menga Trabzonda qolishni taklif etdi. Men unga "Shuncha vaqt uyimda bo'lmadim. Onam va ukamni ko'rib kelishga ruxsat bersangiz", dedim. Qo'mondon bunga qarshilik bildirmadi va biz uchun kemadan joy ajratildi. Men, xotinim, Abdulqodir va uning rafiqasi birgalikda Istanbulga qarab yo'l oldik. Uzoq ayriliqdan keyin onam va ukam bilan diydor ko'rishdim. Shu sababdan o'n besh kundan keyin dunyoga kelgan qizimizga Vuslat (*Visol*) deb nom qo'ydik.

Filologiya fanlari doktori Rustam SHARIPOV tarjimasi

Keling, kitob o'qiymiz!

Har bir inson yaxshiligi bilan aziz



“Maktabni bitirganimda (1975-yilda) otam meni Toshkentga olib borgandi. Men poytaxtni ko'raman, deb quvonchim ichimga sig'maydi. Otam esa uchragan kishidan mehmonxonani surishtiradi. “Toshkent” mehmonxonasiga joylashganmiz.

Bordik. Qo'limda karton papka, universitetning Jurnalistika fakultetiga hujjat topshirishim kerak. Borsak, tumonot odam. Navbatda turganimizda qo'limdagi papkani tushirib yubordim, ipi yaxshi bog'lanmagan ekan, ichidagi hujjatlar sochilib ketdi. Hech kimning hech kim bilan ishi yo'q. Otam yerdan hujjatlarni yig'ib olarkan, orqadan bostirib kelayotgan yoshlarga turtinib, do'ppisi boshidan uchib ketdi. Buni ko'rib, yig'lamoqdan beri bo'ldim. O'sha kuni bir amallab hujjatlarni topshirganmiz”.

Bu parcha “Shuhrat” medali sohibasi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Gulchehra Jamilovaning “O'zim bilan yuzma-yuz” kitobidan keltirildi. Ishonasizmi, shu parchani o'qir ekanman, katta orzular bilan poytaxtga kelgan yoshgina qiz, otasi, guvullagan izdihom ko'z oldimda aniq gavdalandi. Juda tanish manzara. Va eng e'tiborli tomoni shundaki, qizini o'qitish uchun o'zi hech ko'rmagan shaharga kelgan Ota! Bu bir qarashda oddiygina ko'ringan voqeaning yuqorida ko'rsatilgan yiliga e'tibor bering-a. U paytlar chekka qishloq qizining poytaxtga o'qishga kelishi katta gap edi.

Qiz ota ishonchini oqladi, bir ijodkor sifatida el mehrini qozondi.

“O'zim bilan yuzma-yuz”dan **o'qiymiz**: “Men shu zaminni boricha sevib, qadrlayman, chunki bu mening Vatanim!”

Novda edi,
Uni qalbimga ekdim,
O'stirdim izg'irinlardan panalab.
Otash mehrimdan kuch, harorat berdim,
Yashar edim daraxt bo'lishin o'ylab.
Bu daraxt Vatandir,
Navqiron, azim,
Har shoxida sevgim gullab yotadi.
Yashillanib, ko'kka o'rlar kun sayin,
Kun sayin chuqurroq ildiz otadi!”

Ana shu misralarda uning butun umri, mehri, e'tiqodi mujassam.

Gulchehra Jamilovaning shahar va qishloqning turfa jilolari aks etgan hikoya va qissalarini o'qigan edim. Bir dilbar she'rlari ham borligini yaqinda bilibman. Va darhol o'quvchilarimizga ilindim.

“Qor yog'ar,
Qarshimda – kumushrang dunyo.
Oppoq chamanlarni xushhol kezaman.
Nogoh lablarimga qo'ngan zarrada –
Gullayotgan baxtning ta'min sezaman!”

Opa sermahsul ijodi bilan alohida ajralib turadi. Yurtdoshlarimizning sodda va samimiy qalblarini usta rassom kabi so'zda chizib, o'quvchilarga taqdim qiladi. Bu kitobda qishloq, dalalar ruhini his qilasz. El kezib, eldoshlarni tanitgan ijodkorning “O'zim bilan yuzma-yuz” kitobi mashaqqatli mehnat mahsulidir.

O'qiymiz: “Mehnat doimo men bilan yonma-yon yashadi. Qadamba-qadam ta'qib etardi meni. Shundayam og'rinib-og'rinib yaxshi ko'rdim mehnatni. Bora-bora uyqularimni oldi, nimagaki qo'l ursam “tezroq bo'l”, deb qistayverardi. Charchasam, nafas rostlagani ham qo'ymasdi. Axiyri tushunib qoldim, mehnatning orqasidan faqat yaxshilik kelar ekan”.

“O'zim bilan yuzma-yuz” sarguzasht asar yoki sevgi qissalari emas. Kitob haqida shunday deyilibdi: “...hayotiy tajribalar, turmushdagi saboqlar, ham quvonchli, ham tashvishli voqea-hodisalar qalamga olinganki, ularni ko'pchilik bilan baham ko'rish, shu asnoda o'quvchini sergak yashashga undab, yaxshiliklarga ilhomlantirish muallifning asosiy maqsadidir. Toki, umrimizning go'zal xotimalari bugungi o'y-xayollarimiz va ezgu harakatlarimizga juda-juda bog'liq ekanini unutmasak bo'lgani”.

Kitobni varaqlar ekanman, quyidagi parchani o'qib, tagiga chizib qo'ydim: “Mirza Majidov, Abdurasul Oltmishev, Abdusamat Hamidov, Rahmatilla Inoyatov, Zubayda Ochilova, Abduqodir Rahmonqulov, Shokirjon Sheraliyev... Bu insonlar endi oramizda yo'q. Lekin ularning suhbatlari, gap orasida maqol-u hikmatlari, o'gitlari yodimda muhrlanib qolgan. Har bir inson yaxshiligi bilan aziz ekan”.

Bu yerda gap Samarqand viloyati Jomboy tumanining “Shonli mehnat” gazetasi jamoasi ijodkorlari haqida ketyapti. Opa ilk faoliyatini shu gazetada korrektorlikdan boshlagan.



Aziz o'quvchi, ehtimol, yuqoridagi insonlarning ism-familiyalari siz uchun hech nimani anglatmas, ammo so'nggi gapga e'tibor bering: “Har bir inson yaxshiligi bilan aziz ekan!” Go'zal hikmat, shunday emasmi?

“O'zim bilan yuzma-yuz” ijodkorning yagona kitobi emas. Negadir shu kitobga ko'proq to'xtalдим. Ehtimol, ruhiyatimga yaqin bo'lgani uchundir.

Gulchehra Jamilovaning “Nur vodiysi” kitobiga bir nechta hikoyalari ham kiritilibdi.

O'qiymiz: “Papkasini yelkasiga osib maktabga ketayotgan Hamida kimningdir tovushi kelgan tomonga beixtiyor o'girildi. Sal naridagi bog'cha darvozasi yonida bir qizaloq dadasining bo'ynidan qattiq quchib olgan, dadasi esa: “Xo'p, qizim, seni olib ketgani, albatta, o'zim kelaman” deb qayta-qayta takrorlardir. Hamida ota-bolaning bu holatidan ta'sirlandi. Negadir ma'yus tortdi. O'shanda qandoq yaxshi edi-ya!”

Bu “Hammasi yaxshi edi...” hikoyasidan parcha. Oila dramalarida juda ko'p hollarda e'tibordan chetda qoladigan eng muhim inson – bola haqida bu hikoya. To'g'rirog'i, bolalar asralishi kerak bo'lgan yolg'izlik, qalb og'riqlari haqida. Hamida ismli qizaloq... Yo'q-yo'q, yaxshisi o'zingiz o'qing, xulosani o'zingiz chiqaring.

“Ma'raka” hikoyasidan **o'qiymiz**: “O'sha kezlarda ovsinlarining qay biri to'yga, qay biri gap-gashtakka ketayotib, bu hovliga birrov kirishar, qo'lidagi go'dagini “enajon”ga qoldirishardi. Kelinlar-ku, mayli-ya, hatto uzoq-yaqinga tushgan qizlari ham faqat zarur paytdagina Noroy enani so'roqlardilar.

– Onajon, ertaga qaynsinglimnikida beshik to'yi, somsa pishirib bering.

– Kuyovingiz shilpildoq yegisi kelibdi. Bilasiz-ku, xamirni sizchalik yupqa qilolmayman.

– Ovsinim o'g'il to'yi qilmoqchi, ertaga bozorga birga boraylik, sarpo tanlashasiz, xo'pmi?

Mushtipar ona bu iltimoslarning birortasiga yo'q demas, doimo qiz-u kelinlarining xizmatiga shay turardi. Lekin qizlari ham, kelinlar ham biror marta Noroy enaga: “Qo'ying, charchadingiz, dam oling!” deyishmagan. Bu ham keksa jon bo'lsa, qachongacha bizning xizmatimizda bo'ladi, deb hech kim o'ylamagan o'shanda.

Shu mushtdekkina jonni faqat yumush ustida ko'raverib, hammaning ko'zi shunga o'rganib qolganmidi?!”

Noroy enani xuddi oqib turgan suvga o'xshatdim. Obdan foydalanasiz, suv-da, foydalaniladi. Bir kuni shu oqib turgan suv quridi...

“Singil” hikoyasi esa... Kechirib bo'lmaydigandek holat. Hammaning o'z haqiqati bor. Ammo yana bir haqiqat shuki, jigarchilik degan uzilmaydigan rishtalar bor.

Aziz o'quvchi, Gulchehra Jamilovaning ijod olamiga marhamat.

Huzurli mutolaalar tilagi bilan

Inobat IBROHIMOVA,
“Vatanparvar”

Voqeiy hikoya

HOSILANING SO'NGGI RAQSI

Nonushta tayyorlayotgan Hosila boshi aylanib, oshxona devoriga suyandi. Yaqin bir oydirki holi quriydi, goh u yeri, goh bu yerida og'riq qo'zg'aydi. Qishloq tibbiyot punktidagi shifokor “Qon tahlili, topshiring, unga qarab, dori yozib beraman. Balki, tibbiy apparat tekshiruvidan ham o'tishingizga to'g'ri kelar”, deganiga ham bir hafta bo'lyapti. Eri Quddus xotinining kasal bo'lishini, shifokorga uchrashini xushlamaydi. Shuning uchun biror joyi og'risa, unga bildirmaslikka harakat qiladi. “Ishqilib, holim qurishi o'tib ketsin-da, bir etak bola, hovli-yu, mol-holni kim eplaydi. Yaxshiki, Mehrinozim jonimga darmon. Ukalariga qaraydi, uy ishlarida tayanch. Ammo uni yumushlardan biroz xoli qilishim kerak. Bu yil maktabni bitirib, o'qishga topshiradi. Ey Alloh, kuch-quvvat ber, yomon darddan o'zing asra!



– Ha, devorga suyangancha, qaqqayib turibsan, choy tayyormi?

Xayolga berilgan juvon eri Quddusning o'shqirishidan bir sapchib tushdi.

– Mana... hozir. Boshim aylanib ketdi, shunga...

– Qachon qarama, bir joying og'riydi. Mehrinozga hovli tozalatmay, supur-sidiringni o'zing qilsang bo'lmaydimi. U tezroq nonushta tayyorlardi, – erkak “Baribir bilganingni qilasan”, degandek qo'l siltab, oshxona tomon yurdi va qovoq uyganicha, ortiga burildi. – Menga kasalman, degan bahonang o'tmaydi. Do'xtirga yugurishni xayolingga keltirma, ortiqcha pulim yo'q. Katta-katta ovqatingni yeb, ishingni qil! Shunda boshing aylanmaydi.

Hosila indamadi, erining bo'lishi shu. Uning qaysar va qo'pol fe'liga ko'nikib ketgan ayol, dardini bir chetga surib, ishini davom ettirdi. Erini ishga, bolalarini maktabga kuzatdi. Og'riq qoldiruvchi dori ichganiga qaramay, tanasidagi dard ketay demasdi. “Onamni ko'rmaganimga ham, bir oy bo'lyapti, sog'indim”, xayolidan o'tkazdi juvon. “Borib kelsam, yaxshi bo'lardi. Keyin ahvolimni aytсам, jo'yali maslahat berarmidi. Nima bo'lsa ham, menga ichi achiydigan yolg'iz mehribonim u. Opa-singil, akalarim o'zi bilan ovora...”

– Shuncha paytdan buyon dardingni ichingga yutib yuribsanmi, bolam?

– Iffat xola Hosilani astoydil koyidi.

– Nima ko'p do'xtir ko'p, do'xtirxonalar ko'p. Vaqtini o'tkazdirmay, tezroq bormaysanmi?!

– Siqilmang, ayajon, kuyovingizning qo'liga pul tushgan zahoti shifokorga uchrayman. Bilasiz-ku, astoydil tekshirtiraman desangiz, ko'proq pul kerak bo'ladi.

– Eringning fe'lini bilaman, qattiq. Pul kerak bo'lsa, mendan, akalaringdan olsang bo'ladi-ku, qizim. Kecha pensiyamni berib ketdi. Shuni olginda, tezda do'xtirga ko'rin.

– Ayajon, qachongacha kasal bo'lsam, sizdan, akalarimdan pul olaman. O'zi arzimagan nafaqa olasiz. Qo'limda kasbim bo'la turib, erim ishlatmadi. Endi uning qo'liga qarab o'tiribman. Kunbo'yi erim, uyim, bolalarim deb tinmayman. Pul ishlatishga kelganda...

– Qizim, bu gaplarni unut, sog'lig'ingni o'yla, hammasi yaxshi bo'ladi, – ko'zlari yoshga to'la jigarporasining yelkalarini siladi onaizor. – Kuyovga ham insof kirib qolar. Pensiya pulimni olgin-u, hoziroq do'xtiringga borib uchrash. Akalaring ham qarab turmaydi...

Hosila onasini ortiqcha xavotirga qo'ymaslik uchun chehrasini ochib, tetik xayrlashdi. Ammo undan uzoqlashgan zamon tushkunlik kayfiyati dilini qamradi. Bir tomoni qo'lidagi onasining nafaqasiga qarab, o'pkasi to'ldi. “Yoshim qirqqa yaqinlashyapti, haligacha onam yordam beradi. Otam tirik bo'lganda ham

mayli edi. Aslida onamga qancha mehr-u muruvvat bo'lsa, men qilishim kerak. Uydан yordam olaverib, erimni o'rgatib qo'ydim. Bo'ldi, shu oxirgisi. Bolalarim katta bo'lib qoldi, ishga kiraman. Hech bo'lmaganda, o'zimni eplayman, najot izlab, yaqinlarimga termilmayman. Ishlayotgan ayollar oilasini, kasbini uddalayapti-ku. O'ziga qarab, chiroyli bo'lib yuradi. Men kimdan kamman, hammasini eplayman, uddalayman! Hosila shularni o'ylagani sari o'ziga bo'lgan ishonchi ortib borar, tezroq davolanib, ishga kirish haqida o'ylardi!

– Qon tahlilingiz javobi chiqdi, – Hosilaga bosiqlik ila tushuntirishga harakat qildi shifokor. – Tibbiy apparat tekshiruvlaridan o'tmasangiz bo'lmaydi. Birinchi navbatda, ginekolog shifokorga uchraysiz. Tekshiruv natijalariga qarab, davolanishingiz belgilanadi.

– Nima, menda jiddiy kasallik bormi? – rangi o'zgardi Hosilaning.

– Opa, sizlarga qolsa, davolanishni orqaga surasiz. Keyin holingiz qurib yuraveradi. Sizga jiddiy kasallik haqida gapirmadim, faqat tekshiruvlardan tez o'tsangiz, davolanishni erta boshlaysiz.

Hosila ayollar shifokoriga kirish uchun navbat oldi. “Uyda bir dunyo qiladigan ishim bor,” navbatdagi ayollarning ko'pligini ko'rib, yuragi siqildi juvonning. – “Kamida ikki soat vaqtim ketadi. Bu fursat ichida qancha yumushlarim bitardi-ya. Do'xtirim qattiq turmaganida... Mayli, holim qurishidan charchadim, davolansam, davolanaqolay...”

Negadir shifokor Hosilani uzoq tekshirdi, qon tahlilini qayta-qayta ko'rdi.

– Ayollar shifokoriga oxirgi marta qachon uchragansiz? – Tibbiy varaqasini ko'zdan kechirar ekan, so'radi undan.

– Menmi? Men... To'g'risi, esimda yo'q.

– Eh, ayollar, ayollar, – u boshini sarak-sarak qilar ekan, shoshilib nimadir yoza boshladi. – Hoziroq, mana bu yo'llanma bilan shahar Onkologiya markaziga borib, analiz topshirasiz.

– Onkologiya deysizmi, nimaga, nima uchun? – yuragi qaltiray boshladi Hosilaning.

– O'zingizni qo'lga oling, biz u yerga ko'plab ayollarni tekshiruvga yuboramiz, – rangi oqargan juvonga tasalli berdi shifokor. – Tahlil javobiga qarab, sizni davolaymiz. Hammasi joyida.

Shifokor bo'shashib chiqib ketgan Hosilaning ortidan “Ishqilib, kasallikni o'tkazib yubormagan bo'lsin-da”, dedi afsus bilan.

Nomini eshitsa, yuragi uvushadigan juvon onkologiya shifoxonasida turibdi. Ko'ksida ming bir xavotir-u hayajon. Negaki saratonga chalinganlarning aksar qismi hayotdan erta ketishini yaxshi biladi u. Atrof to'la odam, tekshiruvdan o'tayotganlar ko'p. Kimdir xursand, kimningdir ko'zida yosh. Aksar odamlar biror yaqini bilan birga kelgan. Nima

bo'lganda ham, sherikning bori yaxshi, ruhan tayanch. Ammo Hosila bu yerga tekshirtirishga kelganini yaqinlariga bildirishni istamadi. “Ko'nglim sezyapti, men soppa-sog'man, do'xtirlar vahm qilaveradi”.

Tashxis javoblari chiqquniga qadar Hosila shunday xulosada edi...

– Tushunmadim, sen bu dardga qanday chalinding? – ikkala qo'li bilan boshini ushlagancha, uy ichida u yoqdan bu yoqqa yura boshladi Quddus.

– Saratonni davolatish uchun qancha pul ketadi, bilasanmi? Shunda ham foydasi bo'lsa.

– Bu bilan nima demoqchisiz? Davolaning bilan baribir... – yig'idan qovoqlari qizarib ketgan Hosilaning tomog'iga achchiq faryod tiqildi-yu, boshga so'z aytolmadi.

– Nimaga darrov yomon xayolga borasan-a, xotin? – noto'g'ri gapirib qo'ygani sezdi Quddus. – Bolalarimning onasi bo'lsang! Davolansang, Xudo xohlasa, hammasi o'tib ketadi. Uydagilaring ham qarab turmas.

– Hech kimning bilishini istamayman, – kutilmaganda yig'idan to'xtab, eriga alam bilan termildi Hosila. – Onam bilsa, ado bo'ladi. Shundog'am, qon bosimi, qand kasali bilan yashayapti. Akalarimga aytсам, kelinlar darrov ularga yetkazadi.

– Ahvoling yaxshi bo'lmaganidan keyin bir kun baribir biladi-da. Issig'ida aytgan ma'qulmidi?!

– Yo'q, dedim sizga! – ovozi bir pog'ona balandlatdi, eriga bo'ysunib kelgan ayol qat'iyat bilan. – Uyda qancha mol-qo'y bor. Umrinimning yarmi shularga qarash bilan o'tdi. Kerak bo'lsa, sotasiz. Do'xtir bugundan qolmay, davolanishni boshla, bir soat ham hayal degan. Hoziroq shifoxonaga joylashtirasiz!

Zarbi tang Quddus xotinining aytganini bajardi. To'g'rirog'i, uning “buyrug'ini” bemorning joni uzilish oldidan qilgan vasiyati kabi qabul qildi. Ammo Hosilani shifoxonaga yotqizgan zahoti uning ahvolini akalariga yetkazish uchun yo'lga otlandi. Qizining yomon dardga chalinganini eshitgan Iffat xolaning qon bosimi ko'tarilib, hushini yo'qotdi. Shifoxonada ko'zini ochgan onaizor boshida bedor turgan katta o'g'li Idrokbekka iltijoli termildi.

– Bolam...

– Ayajon, yaxshimisiz, hammamizni qo'rqitib yubordingiz-ku?!

– Yaxshiman o'g'lim, Hosilaning ahvoli...

– Singlim yaxshi ayajon, eri aytgan darajada vahm qilishga arzimaydi. Kuyovning fe'lini bilasiz-ku, bo'rttirib gapirishni yaxshi ko'radi. Kasallik endi boshlanibdi. Yaxshi davolatsak, o'tib ketadi.

– Meni desalaring, Hosilaga yordam qilinglar. U yashashi kerak.

– Albatta, ayajon, jigarimizni tashlab qo'yarmidik...

Oylar o'tdi. Bedavo dard Hosilaning

umrini yemirib borardi. Og'ir muolajalardan tinkasi qurigan ayol yashab qolish uchun najot izlardi. “Qani endi, mening erim ham chet elga olib borib davolatsa. Bu dardning davosi o'sha yerlarda bor emish. Akalarim ham negadir jim, bu haqda og'iz ochmayapti. Balki, do'xtirlar...” Hosila yanglishmagandi. Shifokorlar kasallik ancha avval boshlangani sabab barcha ichki organlarga daxl qilganini, chetga olib chiqishning foydasi yo'q ekanini ta'kidlagandi.

– Ayajon, Idris akam o'g'lini unashrtirgandi, nega to'y qilmayapti?

– Behol yotgan Hosila kutilmaganda so'radi onasidan.

– To'y deysanmi, bolam? – Yuragiga qil sig'may, dard ichida yotgan qiziga xavotirli qarab qo'ydi Iffat xola.

– Ha, rosa to'y ko'rgim, o'ynagim kelyapti. Keyin hamma qarindosh-urug'lar yig'iladi, maza qilib chaq-chaqlashardik, diydorlashardik.

– To'g'ri aytasan, Idris akang to'y qilishi kerak. Bo'yaringdan onang o'rgilsin, to'y ko'rging kelgan ekan, bu yaxshi bo'layotganingdan darak. O'ziyam juda chiroyli o'ynardig-da, qizim, – ko'zlariga yosh to'ldi onaizorni. – Savob ishni keyinga surib nima qilamiz? Hozir Idrok akangni, opangni chaqirtiramiz. Hammalari Idris akang bilan maslahat qilib, to'yni tezlashtirib yuborishadi...

Hosilaning ota hovlisida bugun to'y. Barcha qarindosh-urug', yor-birodarlar jamuljam. Qolaversa, qishloq ahliga taklifnoma berishning hojati yo'q. Ayniqsa, yoshlar kelin-kuyov davrasini xush ko'radi.

Hosila bir fursat barcha dardlarini chetga surdi, to'shakdan turib singlisi yordamida o'ziga oro berdi. Ozib, qomati qizlarnikidek bo'lib qolgan rangpar juvon bir qadar go'zallashdi. O'zida kuch topib, qarindosh-urug'lar davrasiga qo'shildi. Mana, u sevgan qo'shiq yangradi.

Hosila qizi Mehrinoz va opa-singillari bilan raqs tushyapti. Xuddi yoshlik chog'laridagidek, ukpar qadam, yengil harakat bilan raqs tushyapti. Hayotga tashnalik ila bor g'am-anduhlarni unutib, yuzida nim tabassum bilan raqs tushyapti. Yaqinlari esa umri poyoniga yaqinlashayotgan jigarlari uchun pana-panada ko'zyosh qilish bilan ovora.

Oradan uch kun o'tib, qizining dardida bag'ri kuygan Iffat xola olamdan o'tdi. Onasining xudoyisi o'tgach, Hosila ikki akasini uyiga chaqirtirdi. Vasiyat va rozi-rizoligini yetkazdi. Ikki yonida o'tirgan Idrokbek va Idrisbekning qo'llaridan tutgancha Allohga omonatini topshirdi.

Hosila yaqinlarining xotirasida go'zal qiyofadagi so'nggi raqsi bilan muhrlanib qoldi.

Zulfiya YUNUSOVA,
“Vatanparvar”

O'tmish sadosi

TANGRI TUG'ROSI

SULTONLAR O'RTASIDAGI JANG TAQDIRINI HAL QILGAN VOQEA

SAVOL

Ul... nedur? Vujudni titratadi. Unga uchrab qolsang, o'zingni izmingga sola olmayсан. Uning yo'rig'idan yura boshlaysan. Chalgitish uchun nimadir qilmoqchi bo'lasan, oqlab bo'lmaydigan o'zingni oqlashga urinasan. Ammo bundan hech natija chiqmaydi. Baribir tushunolmayсан. Lekin umidvor bo'lasan. O'zingni ovutishni istab, "Kel, u haqda yozaman", deysan. Satrlaring uni ifodalay olmaydi. Shu bittagina jo'n ko'ringan savolga javob topolmayсан. Balki, bu savolning qismati shundaydir. Uning javobi bo'lmasa, bizning aybimiz nimada? Nima qilaylik axir?! Uni hech kim chetlab o'tolmaydi. Ulug'lar ham to'qnash kelgan. Mavlaviy Rumiya unga ro'para bo'lganda, iztirobga botgan... va fig'oni necha asrdan buyon hanuz ko'kka o'rlaydi:

Tingla, nay nelardin hikoyatlar qilur, Ki, u ayriliqlardin shikoyatlar qilur...

Balki, Qo'riqchi uni bilar. Ammo u ko'rganimizdek, nimalarnidir pichirlab o'tiribdi.

QANOAT YOPINCHIG'IN YOPINGAN ODAM

Vaxshuvor hikoyalari. Manbalar bo'yicha uning tarixida uchragan birinchi ulug' shaxs mavlona Muhammad Zohid bo'ldi.

U Hisor viloyatida tavallud topadi. Termiz, Balx, Nasaf, Kesh, Badaxshon, Qunduz, Xuttalan viloyatlarida taniqli edi. Vaxshuvor qishlog'ida yashagani to'g'risida manbalarda aniq ma'lumotlar bor va ularda naqshbandiy alloma Yaqub Charxiyning nevarasi, ya'ni qizining o'g'li ekani yozilgan. Dastlab bobosining Hisor viloyatidagi ba'zi muhtaram suhbatdoshlaridan tariqat ta'limini olib, kamolga yetadi. O'sha davrlarda tariqat ahlining yirik namoyandasi Xoja Ubaydulloh Ahror (1404–1490) Movarounnahrda naqshbandiylar rahnamosi edi. Uni Hisor viloyatida ham yaxshi bilishardi. Mavlona qalbida Xoja Ahror suhbatiga ishtiyoq paydo bo'ladi. U xoja xizmatiga yo'l oladi. Bu to'g'rida Muhammad Hoshim Keshmiy deydi: "Mavlona Muhammad Zohid uzlat va qanoat yopinchig'ini yopinib, hazrat Xoja Ahror ostonasini o'pdi.

QUYOSHGA BUYRUQ

Mavlonaning ushbu safari va ikki ulug' azizning uchrashuvi to'g'risida

"Tuhfat az-zoirin"da qiziqarli rivoyat saqlanib qolgan. Naql qilinishicha, mavlona Xoja Ahror huzuriga oshiqardi. Nogoh sukr g'olib kelib, ahvoli beqaror bo'ldi. Quyosh botmoqqa yaqinlashardi. Yoronlari bu holdan tashvishlanib: "Quyosh botib, asr vaqti o'tib borayotir", deya arz qildilar. Xoja o'z holiga qaytdi. Ko'rdi, oftob cho'kib, asr namozi qazo bo'ladi. Darhol botayotgan quyoshga qarab: "Ey oftob, botmay tur!" deya xitob qildi va namozni ado etishga kirishdi. Namoz tugagan zahoti quyosh g'oyib bo'lib, zulmat tushdi.

BIR SUHBAT MARTABASI

Bir necha manbada keltirilishicha, mavlona Hisordan Samarqand sari o'tlanib, xoja xizmatiga shoshilardi. U Samarqanddagi Danasar mahallasiga kelib tushadi. Bu tashrif xojaga ayon bo'ladi va u kun ayni qizib, zabtiga olgan peshin mahali xachirini egarlab, ashoblari bilan mavlonani kutib olgani chiqadi. Xoja mavlonaga yetishib, undan hol so'raydi. Ular daraxt soyasiga o'tiradi va ikki oshiqullohning darveshona suhbat boshlanadi. Bu suhbat ila xoja mavlonaga lutf ko'rsatib, uni o'z irshod halqasiga kiritadi. Mavlona xoja bilan bir bor suhbat aylab, murodi hosil bo'ladi va uning xalifalaridan biri sifatida taniladi. **Xoja Muhammad Zohid hayoti davomida Xoja Ubaydulloh Ahror bilan manbalarda so'zlangan Samarqand yaqinidagi mazkur daraxt tagida faqat bir martagina ko'rishadi va bir necha soat gurgung qiladi.** Shu suhbat orqali naqshbandiya silsilasida uning halqasiga tutashgan yangi bir bardavom tarmoq paydo bo'ladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Maxdumi A'zam Ahmad Kosoniy: "Xoja Ahror Valiyning ikkinchi xalifasi Muhammad Zohid Vaxshuvoriy edi", deb yozadi.

Qadimgi mualliflar yozishlaricha, akmallikning oliy maqomlariga yetishgan bandaning nazari tushsa, hatto ko'kda uchib borayotgan qushda valoyat hosil bo'lar ekan. Habib Ajamiy, Najmiddin Kubro va boshqa so'fiylar hayotidan bunga ko'p misollar keltirish mumkin. Bir suhbat martabasi Muhammad Tohir Xorazmiy e'tiborini ham tortadi.

URUSHGA QARSHI MAKTUB

Mavlona Hisor, Chag'aniyon viloyatlarida Alouddin Attor va Yaqub Charxiy kabi oriflar

maktabining munosib davomchisi, xalqni haq yo'li sari, ma'rifatga targ'ib etuvchi qol-u hol ilmi olimi edi. Uni oddiy xalqdan hukmdorlargacha tanirdi va hurmat-izzat qilardi. Ayniqsa, u va temurli Sulton Mahmud o'rtasida urush bilan bog'liq bir voqea el orasida mashhur bo'lgan.

Bu haqda mavlona Muhammad Sa'id deydi: "Ustozim hazrat mavlonadan eshitgandim. Lutf ila dedi:

"Hisor va Badaxshon hukmdori Sulton Mahmud akasi bilan jang qilish maqsadida Samarqandga yuzlanadi. Murshidi hazrat Xoja Ahror quddisi sirrihi bu harakatni qoralab, unga arznoma yozadi. Bu qarorini botini orqali mavlona Zohid rahmatullohi alayhi xizmatiga ma'lum qilib, hazrati xoja dasti tasarrufi ila Sulton Mahmud sipohi shikast topishidan ogohlantiradi. Banogoh bu voqea mavlonaning tilidan barchaga oshkor bo'ladi. Vaxsh hokimi Sulton Mahmudning niyati fosh etilib, u mavlonaga turli navozishlar ko'rguzadi. Shu asnoda ul janobning pand-nasihat qilib, sultonga yozib yuborgan arznomasi yetib keladi. Sulton mavlonaga uzrxohlik bildirib, unga murid tushadi".

Mavlonaning urushning oldini olishga harakat qilishi haqidagi bu hikoya bizni tarixda sodir bo'lgan bir ibratli hodisaga olib bordi. Oldingi yozganlarimizda Sulton Mahmudning mavlonaga uzrxohligini nazarda tutib, u Samarqand yurishidan voz kechgan bo'lsa kerak, deb o'ylagandik. Keyingi kuzatuvlar ish o'ylaganimizdan boshqacharoq ekanini ko'rsatdi. Xoja Ahrorning urushga qarshi Sulton Mahmudga yozgan o'sha maktubi saqlanib qolgan ekan. Faxruddin Ali Safiy uning mazmunini quyidagicha bayon qiladi:

"Bu faqir Tangri marhamati ila janob maxdumzodasi mulozimlariga ushbuni arz etadi: Samarqand – ulug'lar qo'nim topgan pokiza makon, deydilar va yozadilar. Samarqandni bosib olishga qasd etish sizning shon-u shavkatingizga munosib emas. Tangri taolodin andisha qilmay, siz hazratning mulozimlari o'z birodari boshiga tig' tortishi qaysi taomilda bor? Tangri taolo bu ishga buyurganmas, Muhammad rasululloh alayhi vasallam shariatida ham u yo'qdir. Faqir sizga xayrixohlik istab, xizmatkorlik yuzasidan

ko'p iltimos qildim, ammo qabul bo'lmadi. Bu faqirning so'zini rad etib, birovlarining gapi ila bu viloyatga qasd qilmoq, ajablanarlidir. Vaholanki, men sizning xizmatigizda, ular o'z hoyu havaslari yo'lidalar.

Samarqandda aziz kishilar, solih bandalar, faqir-u miskinlar ko'pdir. Ularni bu maqsadda tang ahvolga solish ma'qul ish emas. Sog' ko'ngil o'zini dardga urib tursa, dardmand ko'ngillar ne qilsin? Solih kishilar va mo'minlar tinchini buzishdan qo'rqish kerak. Bu faqir – beg'araz xizmatkoringiz iltimosini xolis Olloh uchun qabul qiling. Haq rozi bo'ladigan ishga qo'l uring, bir-biringizga ko'maklashib, barchangiz bir tan-u bir jon bo'lib, nuqsonli muammolarni hal eting. Subhoni haqning bunday bandalariga atalgan kamoli inoyati bor. Urushni niyat qilish – o'z joniga qarshi urush qo'zg'amoq va jabr etmoq, deyishadi. Ushbu satrlar sahih hadislardan hosil qilingan ma'nidir:

Ba peshi chashm chu xokistaram, mayo gustoh, Ki hast dar taki u otashi-yu daryobi." (Nazaringda kuldirman, bo'lma beor, Bilgilki, kul tagida cho'g'i bor).

TASKIN

Zamonaning ikki nafar ulug'i mavlona Muhammad Zohid Vaxshuvoriy va Xoja Ahror Valiy urushga qarshi chiqdi. Aka-uka temurli sultonlar o'rtasidagi qonli to'qnashuvning oldini olishga urinishdi. Biroq taqdirning ishi o'zgacha kechdi. Sulton Mahmud ularning pand-nasihati va iltimoslariga quloq tutmadi. Samarqandga katta qo'shin yig'ib keldi. Mazkur voqealar 1490-yillar oldidan bo'layotgandi. Bu paytlarda Muhammad Shayboniyxon Samarqand va Buxoro madrasalarida ta'lim olib, keyinchalik Buxoro hokimi Abu Ali Tarxon xizmatiga kirgandi. Zukko va siyosat sohasida favqulodda iste'dodli bu yosh sulton mamlakat ichki hayotidan to'liq xabardor edi. Temurlilar saltanatining oldingi davrlardagi kabi orzu qilarlik, tayangudek siyrati qolmagandi. U kun-kundan yemirilib borardi. Uch hukmdor aka-uka – Sulton Ahmad, Umarshayx va Sulton Mahmudning sira boshi qovushmayotgandi.

Bu jang tafsiloti bayon qilingan boshqa tarixiy manbalar bilan tanishishga ulgurmadik. Hozircha Muhammad Zohid Vaxshuvoriy izdoshlari hamda Faxruddin Ali Safiy axboroti bilan kifoyalanamiz.

Faxruddin Ali Safiy hikoya qiladi: "Sulton Mahmud va amirlari xat, pand-nasihatlariga quloq tutmay, Samarqandga yurish qildi. Hazratning avval sipohiylik qilgan va ushbu muhorabada ishtirok etgan xodimlaridan bir aziz so'zlab berdi: "Mirzo Sulton Mahmud akasi Mirzo Sulton Ahmad bilan urushish niyatida yaxshi qurollangan katta lashkar yig'ib, Hisor viloyatidan Samarqandga keldi. Chig'atoy lashkaridan boshqa to'rt ming turkman hamroh edi. Unga qarshi chiqishga Mirzo Sulton Ahmadning na quvvati va na jur'ati bor edi. Qochmoqchi bo'ldi. Hazratning dargohiga kelib, iztirobda yonib, oqizligini izhor qildi va ketishga ijozat tiladi. Hazrat shahardagi madrasasida edi. Dedi: "Qochsangiz, Samarqandning hamma odamlari asir olinadi. Qaddingizni tik va ko'nglingizni to'q tuting! Men amringizga muntazirman! Agar dushman mag'lub bo'lmasa, meni jazolang".

So'ng Mirzo Sulton Ahmadni madrasa hujralaridan biriga kiritdi va o'zi bo'sag'aga o'tirib oldi. Uzoq yo'lda charchamaydigan va yo'rg'a nortuya keltirishlarini aytdi. Unga bir necha kunlik suv va ozuqa yuklab olib kelishdi va hujraning oldida Sulton Ahmadning ro'parasiga cho'ktirishdi. Hazrat dedi: "Agar Mirzo Sulton Mahmud Samarqandni olsa va urush bo'layotgan darvozadan kirib kelsa, siz bu tuyaga minib, xos xodimlaringiz bilan boshqa darvozadan chiqib ketasiz".

Bu tadbir – jang vahimasini Sulton Ahmad yuragidan quvib chiqargan taskin edi. U jang taqdirini kutib, hujrada o'tirdi.

Faxriddun Ali Safiy xabariga ko'ra, qo'shin va shahar ahli Xoja Ahror boshchiligida bo'lajak jangga tayyorlana boshlaydi.

SULTONNI QUVLAGAN TO'ZON

Sulton Mahmud lashkari Samarqand qal'asi tashqarisida hujumga shaylanardi. Bu paytda Xoja Ahror yaqinlaridan Sayyid Hasan, mavlona Qosim, Mir Abdulavval va mavlona Ja'farni yoniga chaqirdi. Ularga: "Tez borib, Mirzo Sulton Mahmud tarafidagi darvoza ustiga chiqinglar. Uning lashkari sharmanda bo'lib qochmasa, yonimga kelmang. Dushman lashkari mag'lub bo'lmasa, siz uchun mening dargohimga minba'd yo'l yo'q!" deya amr etdi. Ular darvoza tepasiga chiqib, o'z ishini bajardi. Bu voqeani mavlona Qosim: "Darvoza burji ustida muroqabada o'tirib, g'oyib bo'ldik. Biz yo'q edik. Ko'rganimiz... hamma Hazrat edi. Bu izdihomda butun olam Hazratning vujudi muboraklari ila to'lgandek mushohadada edik", deya eslaydi.

Dushman shiddat bilan hujum qilardi. Tushgacha jang qizidi. G'alaba juda-juda yaqindek edi. Shahar himoyachilari holdan toygandi. Qo'qqisdan Dashti Qipchoq tarafdan yomon to'zon kelib, Sulton Mahmud lashkari va qarorgohini qoplad. U behad quyuq va qattiq edi. Jangchilarni ko'z ochirmay qo'ydi. Otlig'-u piyoda aralashib, odam odamni tanimay qoldi. Chodir-u jang anjomlarini uchirib ketdi. Sulton Mahmud amirlari va bir qancha turkmanlar qo'rshovida turgan joy yorilib, jarlik qulab tushdi. To'rt yuzga yaqin jangchi vahimali shovqin va ayanchli faryodlar bilan uning tagida qolib halok bo'ldi.



Bu qo'rqinchli shovqin-so'rondan turkman jangchilarining otlari hurkib, egalarini olib qochdi. Ular qanchalik urinmasin, qayta saf tuza olmadi. Qatorlar buzildi. Kutilmagan bu ofatdan Sulton Mahmud va qo'shinining yuragiga g'ulg'ula tushdi. Qattiq qo'rqinchdan ular palapartish qochishga yuz tutdi. To'zon Sultonni qo'shini bilan shahardan ancha nariga quvib bordi...

Dushmanning sarosimaga tushganidan ruhlangan Sulton Ahmad jangchilari va shahar himoyachilari ularni ta'qib qilishga kirishadi. Ko'plarini asir qilib, qanchadan qancha qurol-yarog', dushman tashlab qochgan jihozlar va qimmatli buyumlarni o'lja oladi. Urush Sulton Mahmudning to'liq mag'lubiyati bilan yakunlanadi. Rivoyat qilishlaricha, Xoja Ahror Valiy jangdan keyin Sulton Ahmadni madrasaning hujrasidan tashqariga chiqarib, saroyga kuzatib qo'yadi. O'zi Xoja Kafshir mahallasiga jo'naydi.

ABADIYAT TAXAYYULI

Zamonlar o'tdi. Tarixning ko'p varaqlari yirtildi, yo'qoldi, ko'mildi. So'zlayversang, gap tugamaydi. Kimdir bu voqealarni shunchaki oddiy rivoyatday qabul qiladi, ishonishi qiyin. Ammo u ingliz millatining faxri bo'lgan, ijodkorlarini asrlar bo'yi ilhomlantirib kelayotgan "Qirol Artur" afsonalaridan butkul haqiqiyroq. Bu dunyoda o'zbek nomi bilan ataladigan millat ham bor...

Qayrilib, ortga qarayman. O'zbekning 70-80-yillardagi to'y kurashlari, ko'pkarilari, or-nomusi, viqori, tantiligi, soddaligi, dostonlari, suhbatini Yer yuzining yana biror joyidan topib bo'larmikan? Oq ostonaga Otadan ko'zlari taajjubda javdirab turgan bolakay va uning oyog'iga tuproq surtmoqchi bo'lgan ona, Langar Otadan shivit olib ketayotgan keksa kampir, Hazrati Sultonga eshak minib jo'nayotgan ikki qo'shni chol, ichida oy qalqigan Xushaydon bobo qudug'i, "akademik M.Y. Masson ham aniqlay olmagan" Eski Langardagi sirli qabrlar... ko'hna Turkiston zaminida ularning qatori tugamaydi. Ilohiy olamga tutashib

ketgan Abadiyat taxayyuli ular. Hayot mazmuni, Millat qalbi, Yurt qiyofasi balki, shu yo'sinda shakllanar...

ARSLONDAN KUCHLIROQ SHER

Sayyid Amir Kulol hazratlari bir kuni talabalari bilan mashhur avliyo Xayrun ota qabrini ziyorat qilish uchun yo'lga tushdi. Nogoh oldilaridan bir arslon chiqib, yo'l o'rtasida turib oldi. Talabalar qo'rqa boshladi. Sayyid Amir Kulol hazratlari arslonga yaqinlashib, uning yolidan tutdi va yetaklab, yo'lning chekkasiga chiqarib qo'ydi. Yana yo'llarida davom etishdi. Arslon boshini yerga qo'yib, ularni kuzatib qoldi.

Voqeaning hikmatini so'rganlarga, Sayyid Amir Kulol hazratlari: "Ey do'stlarim, shuni biling, kim chindan Ollohdan qo'rqa, har narsa undan qo'rqa, unga zarar bermas. Ollohdan qo'rqmagan kimsa, har narsadan qo'rqa", dedi.

Bu hikoyada arslon o'zidan ko'ra, Tangrining qudratliroq sheriga duch kelgandi.

HODISALAR O'ZAGI

Suluk pirlarining silsilalari bayon qilingan qadimiy qo'lyozma asarlar ko'plab uchraydi. Azaldan ko'hna Turon hududida yashab kelayotgan xalqlarning ijtimoiy-siyosiy o'tmishi, qo'shni xalqlar bilan madaniy aloqalari, bu zaminda ilm-u fan va madaniyatning tarixiy taraqqiyotini yoritishda bu turdagi asarlar ham behad ahamiyatlidir. Silsilalar bayoni tariqat ahli tarixining o'ziga xos o'zagidir. Axloq, tarbiya, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, oq va qorani, dunyoni va inson o'zini tanishiga oid ko'p hodisalar shu o'zak atrofida shakllangan, ro'y bergan.

O'ZINGNI TANI, BIL...

Vatan nedir? Buni hatto Frans Kafkada ham tugal topa olmasan. Aks holda u do'stiga yozganlarini yoqib yuborishni tayinlamasdi. Paulo Koelodek iste'dodli ijodkor tasavvur yo orzu qilolmaydigan dunyo – Abadiyat taxayyulidagi voqealar ichidamiz. Muhammad Zohid Vaxshuvoriy ham shu yerda.

Tangri tug'rosi uning ibodatida namoyon bo'lardi. Uning ibodati... o'zidan o'zgani kuydiruvchi ishq edi. Mendagi So'zlarning barchasi shu yerda to'xtab qolmoqda. Bu otashga kirishga hech birining jur'ati yetmaydi. Faqat buyog'i... Zohidning xayrli duosi barakatida ko'rina boshlagan Tug'ro – Jahon naqshini qalb ko'zi bilan tomosha qilish mumkin endi.

Ul... neder? U yaratgan Tangrining san'ati, olamlar qalbining qoq o'rtasiga bekitilgan naqshidir. Unga ishq... ibodat... ezgulikning mashaqqatli yo'llaridan boriladi. Ammo bu hali javob emas. Tangri taolo Muhammad Zohid Vaxshuvoriy hayotini o'z tug'rosi bilan bezagan edi.

**Abdusattor JUMANAZAR,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi
Sharqshunoslik instituti
ilmiy xodimi**



Madaniyat

ELCHINING ETIKASI QANDAY BO'lishi KERAK?

Bilamizki, davlatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar qadim zamonlardan elchilik munosabatlari orqali mustahkamlanib borgan. Bu munosabat orqali davlatlar o'zaro iqtisodiy, madaniy va savdo aloqalarini o'rnatib, o'zaro muloqot va kelishuvlarni shakllantirgan. Turon o'lkasida ham elchilik munosabatlari o'z tarixiga ega bo'lib, ikki davlatning xalqaro munosabatlarida ko'pri bo'lib xizmat qilgan. Keyingi davrlarda elchilik institutining shakllanishi va elchilik o'z o'rni diplomatik aloqalarga bo'shatib berishi iqtisodiy taraqqiyot belgilaridan biri bo'ldi.



“Elchi” atamasi “el” so'zidan olingan bo'lib, tarixiy jihatdan biror qabila yoki xalqni anglatgan. Uning vazifasi ko'p hollarda yurt va xalq nomidan qo'shni xalqlar hamda qabilalar o'rtasidagi munosabatlarni kengaytirishda va davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini saqlab qolishda xizmat qilgan.

“Elchi” atamasi va uning vazifasi to'g'risida manbalarda turli nomlanishlar hamda fikrlar mavjud. Jumladan, Mahmud Koshg'ariy o'zining “Devonu lug'ati-t-turk” asarida “elchi” atamasini o'ziga xos tartibda tavsiflagan. Muallif o'z davrida elchiga nisbatan “yalavoch”, “alavoch”, “yalafor” va “rasul” so'zlari bilan murojaat etilganini keltiradi. Islom dunyosida ham elchi so'zi turli xil atamalar bilan ifodalanib, ular mohiyatan bir-biriga yaqin bo'lgani bilan istilohiy mazmun jihatidan farqlanadi. Bular “rasul”, “safir” va “nabiy” so'zlaridir.

Rasul islomda Alloh tomonidan tanlangan, maxsus vazifalar bilan yuborilgan va vahiy (*ilohiy kitob*) olgan shaxs (*payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)*) ni bildiradi. Rasulga berilgan eng asosiy vazifa Allohning yo'lini targ'ib qilish, insonlarni to'g'ri yo'ldan yurishga chaqirishdir.

Nabiylarga esa kitob nozil qilinmagan, ammo Allohning xabarlarini yetkazuvchi payg'ambarlar hisoblangan. Nabiylar ham islomda muqaddas shaxslar bo'lib, ularga islomning asosiy ta'limotlari va ahkomlari o'rgatilgan. Bundan tashqari, islomda “safir” so'zi ham elchi ma'nosida qo'llaniladi. Umumiy ma'noda biror vazifani bajarish yoki xabarni yetkazish uchun yuborilgan shaxsni anglatadi.

Elchi qanday bo'lishi kerakligi, etikasi, fazilatlar haqida to'xtalganda Xoja Samandar Termiziyning “Dastur ul-muluk” (*“Podshohlarga qo'llanma”*) asarida elchilik xizmati, uning sifatleri to'g'risida muhim tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, asarda davlatni boshqarish qoidalari, odil podshohlarga xos sifatlar, zolim podshohlarning kirdikorlari, nazoratchilar, hokimlar, mansab sohiblarining xatti-harakatlari, vazifalari, **Vatan qo'riqchilarining jasorati, o'zbek jangchilarining dovyurakligi, ularga bo'lgan munosabat, mulozimlar**

tayinlash, vazir, elchilarning qanday xususiyatlarga ega bo'lishi, dushman bilan qanday munosabatda bo'lish kerakligi haqida tavsiyaviy fikrlar berilgan.

Jumladan, asarning 6-faslida elchining sifatleri yoritilib, unda elchining tili “o'tkir, yaltiroq shamshir”ga monand bo'lishi, har doim muloyim, samimiy va yoqimli nutqidan foydalanishi kerakligi, agar elchi muloqot boshlanishida keskin yoki do'q-po'pisa tarzidagi so'zlarni ishlatgan bo'lsa, xotimasini yaxshi, yoqimli munosabatlarni, mehribonlikni anglatadigan so'zlar bilan tugatishi kerak. Bundan tashqari, elchi o'z davlatiga sodiq bo'lishi, mamlakatining shon-shuhratini himoya qilishi va uni hurmat qilishi zarurligi, dushman bilan muloqotda bo'lganida, uning makr-hiylasidan doim ogoh bo'lishi kerakligi haqida aytib o'tilgan.

QOLAVERSA, asar bilan tanishish jarayonida to'rt toifadagi insonni elchi sifatida tanlamaslik lozimligi haqida aytilgan. Bular podshohdan jaf o'rganlar, mol-mulki, hurmat-izzati podshoh g'azabi shamoli bilan sovurilganlar, o'z amalidan haydalgan hamda podshohning zarari hisobidan o'z manfaatini ko'zlagan, ya'ni davlat manfaatidan o'z manfaatini ustun qo'ygan kishilarni elchi qilib yuborish aqldan yiroqdir, deb aytib o'tilgan. Bundan xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda ham bu g'oya o'z ahamiyatini saqlab qolgan, chunki elchilar davlatlararo aloqalarda muhim o'rin tutadi va ularning xulq-atvori, mas'uliyatliligi, vijdonliligi va xalq manfaatini ustun qo'yishi kerak.

Diplomatlarining asosiy vazifasi – o'z davlatining manfaatlarini samarali va adolatli tarzda himoya qilish, o'zaro hurmat va tenglik asosida tashqi aloqalarni rivojlantirish. Shu bois yuqoridagi toifalarga ega bo'lgan shaxslarni elchi sifatida tanlash nafaqat axloqiy, balki amaliy jihatdan ham xavfli bo'lishi mumkin. Elchilar, davlatlararo ishonchni shakllantirish va mustahkamlashda katta rol o'ynaydi, shuning uchun ularning ma'naviy qiyofasi, tajribasi va mas'uliyatliligi zarur.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” (“Saodatga yo'llovchi bilim”) asarida ham

elchi haqida keng ma'lumotlar berilgan bo'lib, uning “O'g'dulmish eligga elchi qilib yuborishga qanday kishi kerakligini aytadi” qismida elchining qanday bo'lishi kerakligi haqida quyidagilar yozilgan:

Tamomi kishilardan sarasi elchi (*bo'lishi*) kerak, Bilimli, zakovatli, juda yetuk (*bo'lishi*) kerak. Xudoning qullari orasidan eng saylanganlari, Kishilarning yaxshisi elchilar bo'lganlar. Turli xil ishlar elchi tufayliga bitadi, Xayrli ishlar elchilar tufayli sodir bo'ladi. Elchi juda zakovatli, xotirjam (*bo'lishi*) kerak, Bilimli, so'zga dono, tadbirli (*bo'lishi*) kerak. Xalqni boshlovchi, bilimli beg kishi. Sadoqatli, hamda ko'zi to'q (*bo'lishi*) kerak, Ishonchli, chin, qiladigan ishlari faqat to'g'ri (*bo'lishi*) kerak. Uyat-andishali (*bo'lishi*) kerak, bosiq ham zarif (*bo'lishi*) kerak. Ko'p tillarni biladigan bo'lsa ham yaxshi. Elchi hamma san'at-hunarlarini biladigan bo'lsa Begining nomi elda juda ulug'lanadi. So'zni uqqan, hozirjavob bo'lishi kerak, Ichimlik ichmaydigan, o'zini tutgan (*bo'lishi*) kerak, Tili shirin ham(*da*) ko'ngli ochiq (*bo'lishi*) kerak, So'zi yoqimli ham(*da*) juda aqlli (*bo'lishi*) kerak. Xotirasi yaxshi bo'lishi kerak (*toki*) so'zni unutmasa. Qanday so'z eshitsa, (*ko'ngilda*) qattiq saqlasa. Yuz ko'rki chiroyli bo'lishi kerak hamda bo'yi (*ya'ni qaddi-qomati*) kelishgan bo'lsa, qaddi-qomati kelishgan (*kishi*) odamlar orasida yaxshi bo'ladi.

ELCHINING ETIKETI haqida ma'lumot olishimiz mumkin bo'lgan asarlardan yana biri Nizomulmulkning “Siyosatnoma” yoki “Siyar ul-muluk” (*“Podshohlar*

turmushi”) asari dir. Asarning “Elchilar va ularning ish tartibi” nomli 21-faslida elchining xislatlari yozilgan bo'lib, unda elchilar “So'zlashda jasur, jahon ko'rgan, donishmand, o'tkir xotirali, andishali va chiroyli bo'lishi kerakligi haqida keltirib o'tilgan. Agarda elchi yoshi ulug' va olim bo'lsa, yaxshidir, yuborilgan nadim shu yo'sinda bo'lsa, ishonch uyg'otadi. Agarda jasur va qo'rqmas kishini elchi qilib yuborsalar va u odobli, qurol ishlatishni, chavandozlikni bilsa, muboriz bo'lsa, yaxshiroqdir. Unda biz haqimizda ham boshqalarda xuddi shunday taassurot qoladi.

Elchi ulug'vor kishi bo'lsa ham yaxshi, chunki uning hurmati oshgan bo'lib, unga yomonlik ravo ko'rmaydilar. Sharob ichmaydigan, masxarabozlik qilmaydigan, qimor o'ynamaydigan, kamgap dono elchi yaxshiroqdir. Ko'p vaqlar podshohlar elchiga hadya va sovg'alar yuborib, o'zlarini kuchsiz va mehribon ko'rsatganlar va shu yo'l bilan elchi orqasidan lashkar yig'ib, botirlarini yuborib, dushmanni mag'lub etgan. Elchining siyrati va fikr-zikri podshohning aql-zakovatidan dalildir”, deb ko'rsatilgan.

BUGUNGI KUNDA olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda “elchi” atamasi “diplomat”, “konsul”, yoki “ishonchli vakil” nomlari bilan ifodalanmoqda. Bu keyingi yillarda xalqaro miqyosda huquqshunos va iqtisodchilar tomonidan ilgari surilayotgan iqtisodiy atamalar o'z o'rnida tarixiy atamalarning tub ma'nosini o'zgarishiga sabab bo'lmoqda.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, elchi bo'lish uchun talab qilinadigan fazilatlar ko'proq shaxsiyat va xulq-atvorga bog'liqdir. Elchi o'z davlatining manfaatlarini himoya qiluvchi, madaniyatini tashqi olamga tanishtiruvchi shaxsdir. U shuningdek, kuchli muloqot qobiliyatiga ega bo'lishi, xalqaro huquqni tushunishi va global muammolarni hal qilishda zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishi zarur. Shuning uchun yetuk shaxs bo'lish elchilik lavozimining asosidir.

**Zulfizar ISMATOVA,
O'zR FA Tarix instituti
stajyor-tadqiqotchisi**

Yangi zamon yoshlari

KUBOK MEZBONLARGA NASIB ETDI

Toshkent viloyatining Olmaliq shahrida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan sportning motokross turi bo'yicha O'zbekiston ochiq kubogi musobaqasi o'tkazildi.

"Vatanparvar" tashkilotining 34 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan mazkur bellashuvda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlardan hamda qo'shni Qozog'iston Respublikasidan tashrif buyurgan 100 ga yaqin sportchi turli hajmdagi mototsikllarda belgilangan masofalarni bosib o'tib, marra sari harakatlandi.

Qizg'in va murosasiz kechgan poyga bahslari quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

"65 sm³" sinfida:

1-o'rin: Bahrom Bahodirov (*Buxoro v.*);
2-o'rin: German Usov (*Toshkent sh.*);
3-o'rin: Idris Veliullayev (*Namangan v.*).

"85 sm³" sinfida:

1-o'rin: Yaroslav Maslennikov (*Navoiy v.*);
2-o'rin: Yerlan Kuralbayev (*Qoraqalpog'iston R.*);
3-o'rin: Sherxon Suvonov (*Navoiy v.*).

"125 sm³" sinfida (yoshlar o'rtasida):

1-o'rin: Elbek A'zamqulov (*Sirdaryo v.*);
2-o'rin: Saidbobojon Saitov (*Navoiy v.*);
3-o'rin: Ilnur Umerbekov (*Toshkent v.*).

"125 sm³" sinfida

(*katta yoshlilar o'rtasida*):
1-o'rin: Emran Ablyazov (*Toshkent v.*);
2-o'rin: Bekzod Halimboyev (*Buxoro v.*);
3-o'rin: Bogdan Saturyan (*Navoiy v.*).

"ChZ 350 sm³" sinfida:

1-o'rin: Shevket Suleymanov (*Toshkent v.*);
2-o'rin: Ilya Kudlayev (*Toshkent v.*);
3-o'rin: Marsel Galiyev (*Navoiy v.*).

"500 sm³" (*Xitoy*) sinfida:

1-o'rin: Timur Karimbekov (*Toshkent sh.*);
2-o'rin: Sevil Veliullayev (*Namangan v.*);
3-o'rin: Bahodir Ergashev (*Sirdaryo v.*).

"500 sm³" (*erkin*) sinfida:

1-o'rin: Emran Ablyazov (*Toshkent v.*);
2-o'rin: Bekzod Halimboyev (*Buxoro v.*);
3-o'rin: Andrey Sazonov (*Toshkent v.*).

"750 sm³" sinfida:

1-o'rin: Viktor Lavrov, Bedriy Akimov (*Toshkent v.*);
2-o'rin: Sohibjon Jabborov, Tohirjon Sodiqov (*Sirdaryo v.*);
3-o'rin: Asror Hayitov, Adham Temirov (*Navoiy v.*).

51 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan faxriylar o'rtasida:

1-o'rin: Aleksandr Kondrashov (*Qozog'iston*);
2-o'rin: Anvar Alimov (*Sirdaryo v.*);
3-o'rin: Orifjon Dadaboyev (*Sirdaryo v.*).

60 yoshdan yuqori bo'lgan faxriylar o'rtasida:

1-o'rin: Georgiy Bochkaryov (*Toshkent sh.*);
2-o'rin: Nikolay Sharabayev (*Xorazm v.*);
3-o'rin: Igor Sichyov (*Toshkent sh.*).

Jamoa hisobida:

1-o'rin: Toshkent viloyati;
2-o'rin: Toshkent shahri;
3-o'rin: Navoiy viloyati jamoalari.

G'oliblar va yuqori o'rinlarni qo'lga kiritgan sportchilar "Vatanparvar" tashkilotining diplomlari va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Kubok Toshkent viloyati jamoasiga nasib etdi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

Jarayon

Bosh prokuror o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori tomonidan Jizzax viloyatidagi harbiy tuzilmalarda o'rganishlar olib borildi.

NAVBATDAGI O'RGANISHLAR

Jumladan, viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi va uning tuzilmalarida hamda Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismlarning birida kuzgi mavsumiy va qishga tayyorgarlik ishlari, shaxsiy tarkib, maxsus texnika, transport va anjomlarning shayligi ko'zdan kechirildi.

Jarayonda xizmatni o'tash sharoitlari, navbatchi guruhlar, tegishli organlar va idoralar bilan tezkor axborot almashinuvi, yong'in xavfsizligini ta'minlash va boshqa funksional vazifalar ijrosi hamda faoliyatga doir qator masalalar o'rganildi.

Huquqbuzarliklarning, xususan korrupsiyaviy holatlarning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga e'tibor qaratildi.

Yakunda mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berib o'tildi.

Adliya polkovnigi Sherzod HAYITOV,
Jizzax harbiy prokurori

Sana

KASABA UYUSHMALARI KUNI NISHONLANDI

"Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashida 11-noyabr – Kasaba uyushmalari kuni va joriy yilda O'zbekistonda kasaba uyushmalari harakati tashkil etilganiga 120 yil to'lgani munosabati bilan bayram tadbiri o'tkazildi.



Stol tennisi bo'yicha:

Erkaklar o'rtasida:

1-o'rin: Sobirjon Yusubjanov;
2-o'rin: Dilmurod Usmanov;
3-o'rin: Haydar Suyunov.

Ayollar o'rtasida:

1-o'rin: Tatyana Rogonova;
2-o'rin: Nazokat Madatova;
3-o'rin: Surayyo Xolmirzayeva.

Darts bo'yicha:

Erkaklar o'rtasida:

1-o'rin: Alisher Inagamov;
2-o'rin: Shavkat Toshtemirov;
3-o'rin: Laziz Bo'ranov.

Ayollar o'rtasida:

1-o'rin: Nazokat Madatova;
2-o'rin: Tatyana Rogonova;
3-o'rin: Gulnoza Nurullayeva.

Badminton bo'yicha:

1-o'rin: Haydar Suyunov;
2-o'rin: Chori Saparov;
3-o'rin: Sobirjon Yusubjanov.

Yakunda g'oliblar va yuqori o'rinlarni qo'lga kiritgan xodimlar munosib taqdirlandi.

Ko'rik-tanlov

FAXRIMIZ, G'URURIMIZ!

18-noyabr — Davlat bayrog'i qabul qilingan kun munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan qator ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

Chirchiq shahrida Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari bilan hamkorlikda o'tkazilgan "Yangi O'zbekistonning vatanparvar ayollari" ko'rik-tanlovi ham shular jumlasidan.

Tanlovda harbiy ayollar, harbiylarning rafiqalari, hududda yashovchi xotin-qizlar va talabalar davlat bayrog'ining vatanparvarlikni yuksaltirishdagi beqiyos o'mi va ahamiyatini tarannum etuvchi mavzularda, jumladan she'rxonlik va badiiy sahna ko'rinishlari, savol-javob kabi qator shartlarda o'zaro bellashdi.

Yakunda g'oliblar va faol ishtirokchilarga faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alar topshirildi.

Adliya kapitani Shoilhom SHOAKBAROV,
Chirchiq harbiy prokurorining o'rinbosari




KO'NIKMALAR BOYITILDI

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi bilan Jamoat xavfsizligi universiteti o'rtasida imzolangan o'zaro hamkorlik to'g'risidagi memorandum ijrosi doirasida Harbiy prokuraturada dual ta'lim yo'nalishida qator o'quv-amaliy mashg'ulotlar o'tkazib kelinmoqda.


Bu galgi mashg'ulotlar ham dolzarb mavzular doirasida va amaliy tajribalar bilan uyg'un holda o'tkazilgani bilan alohida ahamiyat kasb etdi.

O'quv-amaliy mashg'ulotlar va mahorat darslari kursantlarning protsessual qonunchilik talablarini amalda qo'llash ko'nikmalarini yanada boyitdi.

Adliya podpolkovnigi
G'iyosiddin RAXMONOV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy
prokurorining yordamchisi



Salomatlik



GRIPP VA MAVSUMIY KASALLIKLARDAN SAQLANING!

Gripp va o'tkir respirator kasalliklar mavsumiy ravishda tez tarqalishi va aholida keng uchrashi bilan ajralib turadigan infeksiyon holatlardir.

O'tkir respirator kasalliklar klinik jihatdan o'xshash bo'lgani sababli aholi o'rtasida "shamollash yoki tumov" deb yuritiladi. Bu guruhga nafas olish yo'llarida kasallik qo'zg'atuvchilarning turli vakillari chaqiradigan mikroorganizmlar kiritilgan. O'tkir respirator infeksiyalarning qo'zg'atuvchilari viruslar hisoblansa-da, biroq bu kasalliklarni bakteriyalar va boshqa mikroorganizmlar ham chaqirishi mumkin.

Klinik jihatdan o'xshashliklari va qo'zg'atuvchilarning asosiy joylashgan joyi nafas yo'llari ekaniga asoslanib, gripp, paragripp viruslari, rinovirus, adenovirus, koronavirus, reovirus, mikoplazmoz va boshqa bakterial infeksiyalar bir guruhga kiritilgan.

O'tkir respirator kasalliklarga mavsumiylik xosdir. Aslida yil davomida infeksiya qo'zg'atuvchisi tabiatda aylanib yuradi va uning ko'payishi hamda boshqa organizmga tushishi uchun sharoit bo'lmagani sababli keng tarqalmaydi. Kuz, qish va bahor mavsumlarida havo haroratining sovishi natijasida immuniteti past yoki yondosh kasalligi bor kishilar, yosh bolalar va qariyalar orasida, uyushgan jamoalarda yopiq binolarda qo'zg'atuvchining asta-sekin tarqalishi kuzatiladi. Bunda ijtimoiy va tabiiy omillarning o'zni kattadir. Qishning qattiq kelishi va uzoq davom etishi, binolarning isitish tizimini yaxshi ishlamasligi, aholining turmush darajasining pastligi kasallikning keng tarqalishiga zamin yaratadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, har bir katta yoshli odam yil davomida yengil kechadigan

o'tkir respirator infeksiyalarning kamida

2-3 ta holatini boshdan kechiradi, bolalar esa 6-8 tagacha holatni boshdan kechiradi. Shifokorga o'z vaqtida murojaat qilish, to'g'ri tashxis qo'yish va o'z vaqtida davolanish natijasida kasallik yengil va asoratsiz o'tadi. Kasallikning o'tkir boshlanishi, umumiy holsizlik, tumov, tomoq qizarishi, tana haroratining ko'tarilishi, yo'tal, barcha o'tkir respirator infeksiyalar guruhiga kiruvchi infeksiyalarga xos belgilardir, lekin yillar o'tgan sari kasallik qo'zg'atuvchilarning ham yangi turlari paydo bo'lmoqda va ularni tashxislash va davolash usullari ham birmuncha murakkablashmoqda. Oxirgi yillarda, ya'ni 2001-yildan boshlab, odam metapnevmonovirusi (HMPV) dunyo bo'yicha tarqalib, ko'plab o'limlarga sababchi bo'lgan bo'lsa, 2019-yildan boshlab insoniyat 784,5 million kishiga ta'sir ko'rsatgan SARS-CoV-2 virusi keltirib chiqargan COVID-19 pandemiyasini boshdan kechirdi. Hozirgi kunda dunyo bo'yicha odam A H1N1 virusi, A H3N2ga o'xshash virus, B/Victoria va B/Yamagata viruslariga o'xshash viruslar tarqalmoqda. Markaziy Osiyo hududida, jumladan O'zbekiston Respublikasida ham A H1N1 virusi, A H3N2, gripp virusining B turi, paragripp va rinovirus aniqlanmoqda. Kasallanish asosan, Toshkent shahrida bolalar orasida ko'p ro'yxatga olinmoqda.

Gripp va o'tkir respirator kasalliklardan o'z vaqtida va to'liq davolanmaslik ularning og'irlashuviga va asoratli kechishiga sabab bo'ladi. Ko'p uchraydigan asoratlarga bakterial zotiljam, gaymorit, otit, frontit, sinusit, miokardit, pielonefrit, pielosistit va xolangitlar kiradi.

Gripp va o'tkir respirator infeksiyalarining kelib chiqishini oldini olishda birinchi o'rinda yuqori nafas yo'llari shilliq qavatining tuzilishini tezda tiklashdir, chunki aynan shilliq qavat hujayralari eng ko'p retseptorlarga ega bo'lib, ular nafaol holatda virusning inson tanasiga kirishiga yordam beradi. Buning uchun yuqori nafas yo'llarining surunkali yallig'lanish va allergik kasalliklarini o'z vaqtida davolash katta ahamiyatga ega. Bemorlarni o'z vaqtida aniqlash, alohidalash va davolash choralari ko'rish infeksiyaning keng tarqalishini oldini oladi.


Immunitetni mustahkamlash – organizmning tabiiy himoyasi. Sabzavot va mevalarga boy ratsion, muntazam jismoniy mashqlar, to'laqonli uyqu grippga qarshi kuchli to'siqni shakllantiradi.

Gigiyena choralari – birinchi himoya chizig'i. Qo'llarni to'g'ri yuvish, antiseptiklardan foydalanish va niqob taqish tashqi muhitda bo'lgan qo'zg'atuvchilarni inson tanasiga kirishiga to'sqinlik qiladi. Yo'talganda va aksirganda og'iz hamda burunni toza dastro'mol bilan berkitish bilan infeksiyani tashqi muhitga tarqalishining oldini olgan bo'lamiz.

Yashash xonalari va xizmat xonalarida mo'tadil issiqlikni ta'minlash, havodagi viruslar sonini kamaytirish uchun xonalarni tez-tez shamollatib turish lozim. Xonadon havosini namlash bilan nafas olish a'zolari shilliq qavatlari namlanadi va himoyalanaadi. Yotoqxonalardagi quritish xonalari, xizmatni o'tash joylarida esa isinish joylarini doimiy ishlashini ta'minlash lozim. Umumjamoa yig'ilishlarini yopiq binolarda o'tkazilishini vaqtincha cheklash lozim.

Mavsumga mos kiyinish, shaxsiy tarkibning dala mashg'ulotlarini o'tashi mobaynida, qorovullik xizmati paytida va hammomda yuvingandan so'ng sovqotishdan saqlash. Aholi orasida epidemik vaziyat noxush bo'lgan holatlarda, shaxsiy tarkibning aholi bilan muloqotini keskin kamaytirish tavsiya etiladi.

**Tibbiy xizmat
podpolkovnigi
E. TO'RAQULOV,
Qurolli Kuchlar
xizmatchisi
B. AHMEDOV,
Mudofaa vazirligi
Sanitariya-epidemiologiya
nazorati markazi
mutaxassislari**



Asr vabosi

Singlimning uyida ustalar ish boshlabdi. Sevinchi cheksiz. Nihoyat, ko'cha tomon devori yopiladigan bo'libdi. Quvonganini ko'rib, kulгим ham qistaydi. O'zi keyingi paytlarda g'isht olishadimi, sementmi, bir katta voqeadek xabarlashadi. Eri ikkovi ancha zahmat chekdi. Bolalari hali yosh. Loysuvoqdan chiqqan bu uyda qilinadigan ish ko'p. Erining maoshidan tejab-tergab foydalanishgani uchun har bir qilingan ishning quvonchi katta. Juda hay-hay uy ham emas. Ammo shu to'rt xonali oddiygina uy misolida ikki insonning orzulari, umidlari yuksalyapti.

“Ustalarining ishi darrovagina ko'rinib qoldi, – deb odatdagidek uy tashvishidan gap boshladi. – Uni ko'rib, qarshimizdagi qo'shnining xotini: “Ha, harakat qilsa, mehnat qilsa, bitadi uy ham (*besh yildan beri biz nima qilyapmiz ekan?*) Xabaringiz bo'ldimi-yo'qmi, biz ham mashinamizni yangi chiqqan zamonaviysiga almashtirdik (*xabarimiz bo'lmaganiga qo'ysa koshki, hayhotday hovli turib, ko'chaga qo'yib qo'ygandan keyin*). Endi, bunday mashinalar obro'-da” deb uyiga kirib ketdi. G'isht terayotgan usta gapimizni eshitibdi: “Kelin, kayfiyating yo'q, hamsoyaning gapi og'ir botdimi?” deb so'radi. “Yo'q, opaning maqtanchoqligiga o'rganib qolganmiz”, dedim. Ustaning gapini eshiting: “Mashina bir temir bo'lsa, uning obro' bo'lgani go'r bo'larmidi? Shu zamonda ahmoq odam mashinasi bilan maqtanadi. Insonga obro', hurmat-izzat tarbiyasi, qobil farzandlardan keladi. Shu ikki o'g'lingni inson qilib tarbiyala, yetadi...”

Oddiy bir ustaning oddiygina falsafasi. Ammo shu oddiylikda umrimizning mazmuni mujassam emasmi?! Bu falsafa kaminangizni anchagina o'yg'a toldirdi. Umr juda tez kechadi. Keksalikka yetganingda qalbing xotirjamlik va huzurni tilaydi. Yoshlikda ortidan quvganing baxt, farovonlikni shu ikkisida ko'rasan. Ammo...

Bugun rivojlangan dunyoning jilvalari ko'z qamashtiradi. O'n yilgina avval ham aqlga sig'mas ko'ringan kashfiyotlar dunyo yuzini ko'rmoqda. Ana shu ilgariylash bilan yonma-yan yana bir illat ham yo'qolish o'rniga kengroq yoyilmoqda. Bu – giyohvandlik.

Baxtsizlik va kulfat degan so'zlar bor. Giyohvandlik aslida xastalik. Uning baxtsizlik va kulfatga qanday aloqasi bor? Bilasizmi, baxtsizlik ichida ham umid bo'ladi. Kulfatda chorasiz qolasiz. Giyohvand odam oilaning kulfati, jamiyatning dardidir.

Bir oila bor edi. Qizi, o'g'li, ota, ona – ko'plab boshqa oilalardan unchalik farq qilmaydi. Ota-ona farzandlari kelajagi uchun o'zlarini

DUNYONING MING TURLI JILVASI



o'qqa-cho'g'ga urib harakat qildilar. Bolalar ham intiluvchan bo'lib o'sdi. Qiz o'qishni bitirdi, turmushga chiqdi. O'g'il masalasi sal... U ham o'qir edi.

Bu dardni birov bilan bo'lishib bo'lmadi. Ota-ona har ikkovining qarindoshlari, do'st-u yorolari hurmatli, baobro' insonlar. Bu darddan og'iz ochishsa, sharmanda bo'lish hech gap emas. Ich-etlarini yeb, chora axtarishga tushdilar. Yashirincha davolatishlar kor qilmadi. O'g'ilni uylab qo'yish... Shunda bu balodan qutularmidi? O'g'il uchun bu ishlar ahamiyatsiz edi. Shunchaki uni tinch qo'ysalar bo'ldi. Bir-ikki uchrashuvlardan keyin hamshira qizga to'xtaldilar. Tezgina to'y kuni ham belgilandi. Ammo onaning ko'ngli chiroq yoqsa yorishmas edi. Bu ishning hayajon-u quvonchidan xavotiri ko'proq edi. To'yga sanoqli kunlar qolganida bo'lg'usi kelinning ota-onasi kelib, qizga hadya qilingan qimmatbaho buyumlarni onaning yuziga otdilar. Shu payt ishdan ertaroq qaytgan ota bu holni ko'rib, ko'ksini changallab ostonaga o'tirib qoldi.

– Giyohvand bolang uchun guldek qizimni xazon qilmoqchi bo'libsana-da?! – dedi unga g'azab bilan qizning onasi.

Erkak xotining qo'lidan tutib tashqariga chiqayotganida ostonada o'tirib qolgan odamning yuziga birpas qarab turdi-da, hamma alamin shu harakatiga jamlagandek uning yuziga tupurdi. O'z uyi ostonasida zabun bo'lgan otaning qarshilik qilish tugul so'z aytmoqqa holi qolmagan edi.

Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi, deganlari shu edi. Er-xotin ikkovlarining ham tilida bir savol aylanardi: ular qayerdan bilibdi? Uzoq jimlikdan keyin xotin yorildi: “To'ydin keyin baribir oshkor bo'lar edi. O'zi bekor shu ishni qildik. Qayerda xato qildik? Huzursiz boyluk uchun shuncha yelib-yugurgan edikmi? Axir hammasi shu bola uchun edi-ku?! U qachon bu baloga muftalo bo'ldi

ekan? Ishonuvchanligi pand bergan unga. Qanday bexabar qoldim? Bergan pullarimni nimaga sarf qilayotgani bilan qiziqmabman. Pul bo'lganidan keyin ishlatadi-da, deb g'afatda qoldim. Non bilan suvga kunim qolsa ham, uning ortidan izma-iz yursam bo'lmasmidi? Bu sharmisorlikdan o'lib qutulib bo'lmasa, tirik qutulib bo'lmaydi”, deb yuzini kaftlari bilan to'sganicha ho'ngrab yubordi.

Ota yotib qoldi, uzoq davolandi. Kasalxonadan chiqqanidan keyin qandaydir so'nib qoldi. Yotib yeganga Sulaymonning sarvati ham yetmaydi, deganlaridek uyda kam-ko'stlar bilina boshladi. Ayolning tilla buyumlari qolmadi. Bir kechada mehmonxonadagi qimmatbaho gilam yo'q bo'ldi. Qandil qachon olinganini er-xotin sezmay qoldilar. Qulflangan seyfning ochiq qolganini ko'rib, qotib qolishdi. Bu uyda hech narsani bekitib qo'yishning imkoni yo'q edi.

Bir oylar o'tib, yig'lab-siqtab qizi kirib keldi. Eri haydab yuborgan emish. “Ukam bir-ikki marta sizdan xabar olishga keldim, deb uyimizga kelgandi. U ketganidan keyin qaynotamning pullari, oyijonning tilla buyumlari yo'qoldi. Kameradan qarashsaki, ukam... Baqir-chaqir qilib tindilar. Ammo ikki kun avval men yo'g'imda borib, kuyovingizning soati, pullarini o'g'irlab ketibdi. O'zi bo'lgani bo'lgan, uni deb mening ham oilam buziladimi?!”

Shundan keyin o'g'ilning oyoq-qo'lini bog'lab, yerto'laga qamab qo'yishdi. Yig'lab nola qilishiga ona chiday olmadi: “Otasi...”, dedi ko'zi jiqqa yoshga to'lib. Erkak og'ir-og'ir qadamlar bilan uy yerto'lasiga tushdi. Ag'darilib yotgan kursini olib, o'g'ilning qarshisiga o'tirdi. Bir-biriga so'z qotmay, bir muddat jim qoldilar.

– Yuvini ol, – dedi otasi uning kir-chir holiga qarab og'ir so'lish olar ekan. – Bu yerdan chiqib, kasalxonaga boramiz. Davolanishing kerak, o'zingni qo'lga olmasang bo'lmaydi.

– Davolanaman, davolanaman, so'z beraman! – dedi jonlanib o'g'il. – Faqat ozgina pul kerak menga, qarzimni uzaman-u uyga qaytaman, davolanaman keyin.

Ota miq etmadi. Chuqur uff tortdi.

– Sen so'z berish nima ekanini bilasanmi? Necha marta so'z berganing yodingdami?

– Oxirgi so'zim, o'lay agar, nima desangiz, shuni qilaman!

– Senday o'g'lim bo'lmasa, koshki edi...

– Otajon, qo'llarimni yeching, iltimos! Ayajon, jon aya, jonim og'riyapti, shu iplarni yechib tashlang! – shunday deb otasining orqasidan sharpasiz kirib kelgan onasiga yalindi.

Ota engashib, o'g'ilning oyoqlaridagi tugunni yechdi. Qo'llarini yechar-yechmas kuchli zarbadan gursillab quladi. Ona chinqirib yubordi. Ko'zlari devonavor yongan o'g'il qarshisida turgan onasini itarib tashlab, tashqariga otiladi.

Ona o'ziga kelib, dastavval qayerda yotganini anglamadi. Birpas yon-atrofiga hayron boqdi-da, so'ng o'rnidan turdi. Polda yotgan erining yoniga borib, “Otasi”, deb boshini avaylab quchog'iga oldi. Otaning joni uzilgan edi. Ayol faryod bilan o'rnidan turdi. Eshikni ochmoqchi bo'ldi, kuchi yetmadi. Yerto'la eshigi tashqaridan qulflangan edi. Jonholatda baqirdi. Kimsa uni eshitmasdi.

Kechda ishdan qaytgan qizi uyda hech kimni topmadi. Oshxonaga kirib, bir nimalar totingan bo'ldi-da, ukasiga ham ul-bul olib, yerto'laga tushmoqchi bo'ldi. Qarasa, eshik qulf. Ortiga qaytmoqchi edi, ingragandek sas chiqdi. Havo tozalagich yonidagi oynadan ichkariga qarab, quti uchdi. Jonholatda qo'ni-qo'shnilarni yordamga chaqirdi. Eshikni zo'rg'a buzib kirdilar. Boshi qonga belanib o'lib yotgan erkak yonidagi ayolning ahvoli og'ir edi. Shoshilinch yordam ko'rsatilganiga qaramay, ona vafot etdi.

O'g'il qaytdi. Sarxush edi. Qo'lga kishan solinganida hayron qolgandek bo'ldi xolos.

O'g'il odam qiyofasidagi kulfat edi. O'zi tamom bo'lgani yetmaganidek, yonidagilar hayotini ham izdan chiqarib yuboradigan kulfat edi.

*** **

Dunyo asr vabosi deb ataydigan bu illat bizdan, farzandlarimizdan uzoq emas. U har xil ko'rinishlarda targ'ib qilinmoqda, g'oyat makkorlik, ustomonlik bilan do'stona qiyofaga kira oladi. Giyohvandlik tubanlik sari yetaklashini hamma biladi, ammo bir martagina sinab ko'rsa, hech narsa bo'lmaydi, degan yanglish xayollarga bormang. Bu dahshatli to'rdan chiqib bo'lmaydi. Dahshatli fojia ortidan boyib boruvchilar hech narsadan tap tortmaydi. O'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas, degan xalq hikmatini unutmaylik.

Inobat IBROHIMOVA,
“Vatanparvar”

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

EZGU ISHGA MUNOSIB HISSA



Xususan, tashkilotning Xorazm viloyati kengashi va uning tasarrufidagi o'quv muassasalarida ham bunday ishlar ko'lamini oshirish borasida tizimli va samarali ishlar olib borilmoqda. Bugungi kunga kelib, tashkilot aholi, ayniqsa yoshlarni ona Vatanga sadoqat, harbiy-vatanparvarlik hamda milliy armiyamizga hurmat ruhida tarbiyalash va Vatanimiz taqdiriga daxldorlik hissini shakllantirish maqsadida ko'plab amaliy ishlarni bajarib kelmoqda. Jumladan, joriy

yilning o'tgan oylari mobaynida tashkilot tomonidan yosh avlodning ma'naviy-axloqiy va vatanparvarlik tarbiyasiga yo'naltirilgan besh yuzdan ortiq ma'naviy-ma'rifiy tadbir hamda ikki yuzga yaqin ommaviy sport tadbiri o'tkazildi.

Ayni paytda tashkilot tizimidagi o'quv muassasalarda "A", "B", "BC", "BE", "CE" hamda "D" toifali haydovchilar, shuningdek "Texnik xizmat ko'rsatish mutaxassislarini tayyorlash" kurslari tashkil etilib, vulkanizatorchi, elektrik-



akkumulyatorchi, gaz-elektrpayvandchi, avtochilangar, avtoelektrik va murakkab texnikalarni boshqarish mutaxassislari tayyorlanmoqda. Amaldagi yilning shu davriga qadar mavjud o'quv muassasalarida yetti mingdan ziyod turli toifali haydovchi tayyorlandi. 3 mingga yaqin turli toifadagi mutaxassis tayyorlanmoqda.

Bundan tashqari, viloyatimizda "Yoshlar daftari" ro'yxatiga kiritilgan yoshlar va ehtiyojmand oila farzandlarining ommaviy texnik kasblarga imtiyoz asosida o'qitilishi Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda yo'lga qo'yilgan. Bunga ko'ra, 100 nafar o'quvchidan iborat ro'yxat shakllantirilib, 47 nafar o'quvchi "B" toifa, 53 nafar o'quvchi esa "BC" toifa haydovchilik kurslarini imtiyozli ravishda bitirib, haydovchilik mutaxassisligiga ega bo'ldi. Shuningdek, viloyat kengashi o'quv muassasalarida qo'shimcha ravishda xizmat itlari yo'lbo'shchisi, radiotelefonchi yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yilgan.

Shu kunlarda esa 10 nafar yosh imtiyoz asosida murakkab texnikalarni boshqarish kurslarida o'qishni davom ettirish istagini bildirgan.

Ta'kidlash joizki, "Vatanparvar" tashkiloti viloyat kengashi va uning joylardagi o'quv sport-texnika markazi nodavlat ta'lim muassasalari tomonidan sportning texnik va amaliy turklarini rivojlantirish borasida ham ko'plab ishlar olib borilmoqda. Natijada sportchi yoshlarimizning respublika va viloyat miqyosidagi sport

musobaqalarida muvaffaqiyatli ishtiroki ta'minlanmoqda. Chunonchi, joriy yilda o'tkazilgan barcha nufuzli musobaqalarda xorazmlik yoshlar faxrli o'rinlarni egalladi. Viloyatimiz sportchilari orasida respublika terma jamoasi tarkibiga kirganlar ham bor.

Bugungi dars jarayonlariga innovatsion texnologiyalarning joriy etilayotgani hamda zamonaviy o'quv avtomobillaridan foydalanilishi bo'lajak haydovchilar malakasini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham viloyatdagi o'quv sport-texnika markazlarida bu jihatlar alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuning uchun hozirga qadar 33 ta "ONIX", 16 ta "FOTON", 8 ta "DAMAS" va boshqa rusumdagi zamonaviy o'quv avtomobillari xarid qilindi.

Kezi kelganda ta'kidlab o'tish joizki, tashkilotimiz bugungi kunda o'z zimmasidagi vazifalarni munosib ravishda uddalamoqda. Mana shu o'tgan 34 yillik faoliyatimiz davomida ko'plab xodimlarimiz zimmasidagi mas'uliyatni his qilib, tashkilotning yuksalishiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Aynan shunday xodimlarimizdan bir guruhi "Vatanparvar" tashkilotining 34 yilligi munosabati bilan tashkilot tizimida 2025-yilning bir qancha nominatsiyalari bo'yicha munosib deb topilib, tashkilotning qimmatbaho va esdalik sovg'alari hamda faxriy yorliq, tashakkurnomalari bilan taqdirlandi.

Fursatdan foydalanib, "Vatanparvar" tashkiloti Xorazm viloyati kengashi jamoasi va uning joylardagi o'quv muassasalari xodimlari tashkilotning barcha a'zolarini 23-noyabr – "Vatanparvar" tashkiloti kuni bilan muborakbod etadi.

Aziz hamkasblar! Yosh avlodni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashdek ezgu ishlaringizda ulkan zafarlar tilaymiz.

Davronbek IBRAGIMOV,
"Vatanparvar" tashkiloti
Xorazm viloyati kengashi raisi



Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

IMKONIYATLARDAN UNUMLI FOYDALANILMOQDA

Xususan, “Vatanparvar” tashkiloti tashkil etilganining 34 yilligi munosabati bilan “Vatanparvar” tashkiloti – mening tanlovim!” shiori asosida turli ma’naviy-ma’rifiy va harbiy-vatanparvarlik tadbirlari hamda sport musobaqalari o‘tkazilmoqda. Albatta, bunday tadbirlar yoshlar qalbida ona Vatanga muhabbat hissini va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantiradi. Bu esa, o‘z navbatida, ularning kamolotida muhim o‘ringa ega.

Ayni paytda markazimizda
“Havo miltig‘idan o‘q otish”,
“Yozgi biatlon” kabi seksiyalar

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Xorazm viloyati kengashi tasarrufidagi Qo'shko'pir tumani "O'rta yop" o'quv sport-texnika markazi nodavlat ta'lim muassasasi jamoasi tomonidan sog'lom fikrli, erkin dunyoqarashga ega yoshlarni tarbiyalash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

faoliyat yuritmoqda. Bu to'garaklarga 30 nafarga yaqin yosh jalb qilingan. To'garak a'zolari viloyat va respublika musobaqalarida faol ishtirok etib, yuqori o'rinlarni egallamoqda.

Bugungi kunga kelib, malakali haydovchilar tayyorlash sifatini oshirish, mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish borasida

ham tashkilotimizda boy tajriba to'plangan. Jamoamiz tarkibida tajribali, bilimdon, o'z ishining mohir o'qituvchilari hamda amaliy boshqarishni o'rgatuvchi-ustalar talaygina.

Albatta, o'z kasbining ustalaridan ta'lim-tarbiya olgan shogirdlarning bilim va malakasi yuqori bo'lishi tabiiy.



O'quv xonalarining zamon talablari asosida ta'mirlangani va sport-texnika, o'quv avtomobili jihozlari hamda ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha ko'rgazmalar bilan jihozlangani ham bu borada qulay imkoniyatlarni yaratmoqda.

Shu kunlarda O‘STM
NTMda “B”, “C”, “BC” toifali
haydovchi mutaxassislar
tayyorlanmoqda.

Ta'kidlash o'rinliki, bugungi kunga kelib, tashkilotda yoshlarni ma'nan va jismonan tayyorlash, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, harbiy-vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib qilish maqsadida, tumandagi umumta'lim maktabi o'quvchilari o'rtasida sport musobaqalari tashkil etilmoqda.

Rustam ATAMURATOV,
“Vatanparvar” tashkiloti
Qo‘shko‘pir tumani
“O‘rta yop”
O‘STM NTM direktori

“Vatanparvar” faollari

KASBGA BO'LGAN SADOQAT

Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Qoraqalpog'iston Respublikasi kengashi tasarrufidagi Beruniy tumani o'quv sport-texnika klubida ko'p yillardan beri sidqidildan xizmat qilib kelayotgan fidoyi o'qituvchilardan biri Davronbek Yuldashevni ko'pchilik yaxshi taniydi. Yo'l harakati qoidalari fanidan bo'lajak haydovchilarga saboq berib kelayotgan bu fidoyi o'qituvchining ko'plab yoshlarning kelajagini shakllantirishda, ularga hayotda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni berishda xizmatlari katta.

Davronbek og'a chorrahaga yaqinlashganida qadamini sekinlatdi. Svetoforlar ishorasi bilan navbatmanavbat o'tayotgan mashinalar oqimini kuzatdi. Ular yil sayin ko'payib bormoqda. Ayniqsa, yengil avtomobillar. Ularning rulida o'tirganidan qay biri mening shogirdim ekan-a?! Birdan yonginasidan o'tayotgan "Damas" avtomashinasining signalidan xayoli bo'lindi. Shu tomonga qarasa, rulda bir o'rta yashar kishi unga jilmayib, qo'l silkiyapti. "Assalomu alaykum, domla!" deb o'tib ketdi. Kim ekan u? Eslay olmadi. Ee... Qaysi birini eslasin, yoshlar, kattalar, turli kasb egalari...

Sahifamiz qahramoni D. Yuldashev 2016-yildan buyon “Vatanparvar” tashkilotida faoliyat ko’rsatib kelmoqda. Dastlab u haydovchi-o’qituvchi sifatida ish boshladi. Chunki uning bu sohada ancha bilim va tajribasi bor edi. Toshkent irrigatsiya institutini muvaffaqiyatli bitirib, Beruniy shahridagi 61-umumta’lim maktabida hamda iqtisodiyot kollejida yo’l harakati qoidalari darsidan o’quvchilarga saboq bera boshladi. O’tgan yillar davomida

Davronbek Yuldashev Beruniy tumanidagi fidoyi va iqtidorli pedagoglardan biri sifatida tan olindi. U kishining kasbiga bo'lgan sadoqat va ishtiyoqi darsni puxta rejalashtirishdan tortib, o'quvchilar bilan odilona muloqot o'rnatishida ham yaqqol namoyon bo'ldi. Hozirda u haydovchilar tayyorlashga munosib hissa qo'shib kelmogda. Bu yo'nalishda muvaffaqiyatga erishib, ko'plab shogirdlar tayyorladi.

Avtomobil boshqarishini o'rganayotganlarning yoshi, kasbi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli ham turlicha bo'lgani sababli ular bilan muomala qilish, tartib-intizomga chaqirish, saboq berishda ham turlicha yondashuvlar talab etiladi. Shu bois Yuldashiev bu vazifalarni ham tajribali ustozlar bilan bamaslahat amalga oshirmoqda.

– Kasbingizdan mamnunmisiz?
– deya so‘raganimizda, u shunday
javob berdi:

– Mamnun bo'lganda qandoq!
Bizdan kasb-kor o'rganib, har yili
ishonch va mahorat bilan rugla
o'tirayotgan minglab kishilarning
xursand qiyofalarini ko'rishning
o'zi katta baxt!

Bugun D. Yuldashevning o'qituvchi sifatida muvaffaqiyat qozonishining asosiy sirlaridan yana biri o'z o'quvchilari bilan juda yaqin insondek samimiy muloqot o'rnatga olishidir. Davronbek og'a har bir tinglovchi bilan alohida shug'ullanishga vaqt ajratgan holda ularning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun o'qitish uslubini moslashtira oladi. U malaka oshirish kurslari va seminarlarning doimiy ishtirokchisi bo'lgan holda o'z bilim va tajribasini hamkasblari bilan ham o'rtoqlashib kelmoqda.



Akbar ALLAMURODOV

REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA

CALL MARKAZ



24/7

– Men “Vatanparvar”ni
tanladim!



Bugun- 2026

“Vatanparvar” gazetasi nashr ko‘rsatkichi – 114
“O‘zbekiston armiyasi” jurnali nashr ko‘rsatkichi – 1273

@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati
bilan bog‘lanish uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

VATANPARVAR



MUASSIS
O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
Maqsd Abilov

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan
farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
departamenti – “Vatanparvar” birlashgan
tahririyatining kompyuter markazida
sahifalandi.

Shu songa mas‘ul:
podpolkovnik
Gulnora Xodjamuratova

ISSN 2010-5541

Gazeta O‘zbekiston Matbuot
va axborot agentligida 2008-yil
6-iyunda 0535 raqami bilan
ro‘yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo‘lim: 55 511-25-72

Navbatchi: kapitan Bobur Elmurodov
Sahifalovchi: Tohirjon Turg‘unboyev
Musahhih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-6044
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 31 955 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani
rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop
etilishiga “O‘zbekiston” NMIU mas‘ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqqa
boshlagan.

Nashr ko‘rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

“O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi
bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri,
Olmazor tumani, Sag‘bon ko‘chasi, 382-uy.

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz

mudofaavazirligi

mudofaavazirligi

www.youtube.com/c/UzArmiya